

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

**TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
KAFEDRASI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

*“V. V. Bartol’d asarlari tarixiy manba
sifatida o’rganilishi”*

BAJARUVCHI: OCHILOV J.

ILMIY RAHBAR: ASS. RAVSHANOV SH.T

SAMARQAND-2015

REJA:

Kirish.....3-6

I Bob. V. V. Bartol'dning hayoti va O'rta Osiyo tarixini urganishdagi ilk tadqiqotlari.

1.1 V. V. Bartol'dning hayoti va ilmiy faoliyati.....7-14

1.2 V. V. Bartol'dning O'rta Osiyo tarixiga doir ilk tadqiqotlari14-28

II Bob. V. V. Bartol'dning ilmiy faoliyatida O'rta Osiyo tarixiy manbaalarining o'rganilishi.

2.1. V. V. Bartol'd tomonidan O'zbekiston tarixiga oid manbalarning urganilishi.....29-41

2.2. V. V. Bartol'd asarlarida Turkistonning sug'orish tizimi tarixiga oid manbalarning o'rganilishi.....41-53

Xulosa.....54

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Kirish.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi barobarda xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirish ishiga katta ahamiyat berilmoqdaki, Prezident Islom Karimov ma'naviyatni yuksaltirishda o'tmish madaniy boyliklarini chuqur o'rganish va targ'ib

etish nihoyatda muhim ekanini ko'plab ma'ruzalarida qayta-qayta ta'kidlab o'tgan. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining madaniy meros va o'tmishdagi allomalarimizning hayoti va ijodini o'rganish ehtiyoji xususidagi so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

«Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanok ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyat muhim vazifa bo'lib qoldi».

Mustaqillikga erishgan kundan boshlab O'rta Osiyo, shu jumladan o'zbek xalqi tarixini haqqoniy va ob'yektiv tarzda urganishga katta etibor berila boshlandi. Shu o'rinda mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar bilan bir qatorda chet el olimlari, sharqshunos va tarixchilari tomonidan yaratilgan vatanimiz tarixiga oid asarlar chuqur tahlil qilinib urganilmoqda. Vatanimiz tarixini yoritishda rus tarixchi va sharqshunoslarining asarlari muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shu jumladan rus tarixchilaridan akademik Vasiliy Vladimirovich Bartol'dning ishlari a'loxida manba sifatida tahlil qilinib urganilmoqda.

Mazko'r diplom ishida akademik Vasiliy Vladimirovich Bartol'dning vatanimiz tarixini yoritishdagi ilmiy ishlari va uning hayotiy faoliyatiga bag'ishlandi.

2015 yilda yirik sharqshunos olim Vasiliy Vladimirovich Bartol'dning tug'ilganiga 146 yil to'ldi. Akademik V. V. Bartol'dning Sharq tarixiga va ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid asarlari keng shuhrat topdi va sharqshunoslikdagi erishgan o'lkan yo'tuqlarni bo'tun dunyoga namoyish qildi.

Garchi V. V. Bartol'd vafotidan so'ng sakson besh yil (u 1930 yilda vafot etgan), uning dastlabki ilmiy asarlarining bosilib chiqqanidan buyon bir yuz yigirma (120) yil vaqt o'tgan bulsada, olimning asarlari hano'zgacha o'z qimmatini yuqotgani yo'q ularda bayon etilgan ko'pgina faktik materiallarga, V. V. Bartol'dning ayrim muhim xulosalari va ko'zatuvlariga to'rli mamlakatlardagi to'rli avlodlarga mansub bo'lgan yo'zlab va minglab kishilar hozir ham mo'rojaat qilmoqdalar. V. V. Bartol'd asarlarini mutaxassis olimlar, o'lkashunoslar, mo'zey xodimlari, o'qituvchilar,

talabalar va umuman, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan qiziquvchilar qiziqish bilan o'qib o'rganmoqdalar.

Akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869—1930) Turkistonning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi, ijtimoiy-iktisodiy va madaniy hayotiga oid «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston» (1900), «Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarning qadim zamonlardan to XVII asrgacha bo'lgan ahvoli haqida ma'lumotlar» (1902), «Turkistonni sug'orish tarixidan» (1914), «Ulug'bek va uning davri» (1918), «O'rta Osiyoda qadimdan to ruslar kelganiga qadar o'tgan davrda paxtachilik» (1924), «Turkistonning madaniy hayoti» (1927) kabi o'nlab zo'r ilmiy va amaliy qimmatga ega bo'lgan asarlar yozib qoldirgan ulkan sharqshunos olimdir. Shuni aytish kifoyaki, olim chop ettirgan 685 asarning qariyb yarmi, aniq qilib aytadigan bo'lsak 320 nafari, Turkistonning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tahliliga bag'ishlangan. Bundan tashqari, V. V. Bartold respublikamizda, xususan uning poytaxti Toshkentda ilmiy, ilmiy-pedagogik va o'lkashunoslik muassasalarini ta'sis etish va ularning faoliyatini rivojlantirish ishiga ham munosib hissa qo'shdi.

V. V. Bartold hayoti va ilmiy faoliyatining katta bir davri Turkiston, xususan O'zbekiston va Toshkent bilan bog'liq. U faqat 1893—1928 yillar orasida Toshkentga yetti marta kelib ketdi va uning har bir safari katta, ko'p hollarda yechimini kutib yotgan ilmiy va ilmiy-tashqiliy masalalar bilan bog'liq edi.

Olim Toshkentda dastlab 1893—1894 yillarda, ya'ni o'zining Turkistonga qilgan birinchi ilmiy safari vaqtida bo'ldi. V. V. Bartold o'lkaga o'shanda Rossiya Fanlar akademiyasi va Sankt-Peterburg universiteti sharq tillari fakultetining yo'llanmasi bilan kelgan edi. Ushbu safardan kuzatilgan maqsad, olimning o'z so'zlari bilan aytadigan bo'lsa «O'lkaning o'tmish tarixiga oid mavjud yozma axborotlarga qo'shimcha tarzda o'sha yerlarda qadimda istiqomat qilgan odamlarning qoldiqlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash va imkoni boricha qadimiy shaharlar va qal'alarining qoldiqlarini tavsif etish»dan iborat bo'lgan. Boshqa so'z bilan aytganda,

qadim zamonlarda turkiy xalqlarning Urxun-Yenisey bo'ylari va Oltoydan Chu va Ila vodiylari orqali O'rta Osiyo bilan bog'langanliklarini tekshirishga aloqador edi.

O'shanda V. V. Bartold va uning hamrohi etnograf S.M. Dudin (1863—1929) Toshkentga o'sha yil (1893) ning yozida yetib keldilar va bu yerda bir necha kun dam olganlaridan keyin, Avliyo Otaga (hozirgi Jambulga) jo'nab ketdilar. Ular o'sha yili Sayram, Chimkent, Avliyo Ota va ularning tevarak-atrofidagi diqqatga sazovor joylarni, shuningdek, Talos vodiysini ko'zdan kechirib ulgurdilar, xolos. Yo'lda yuz bergan baxtsiz hodisa (Vasiliy Vladimirovich otdan yiqilib oyog'ini sindirib oldi va buning oqibatida bir umrga oqsoq bo'lib qoldi) natijasida ilmiy ekspedisiya o'z ishini vaqtincha to'xtatishga majbur bo'ldi. Jarohatlangan Bartold dastlab Avliyo Otaga, u yerdan Toshkentga olib keldi va harbiy gospitalga yotqizildi. Shunday bo'lsa-da, kasal bo'lishiga qaramay, olim bu yerda o'lkashunoslik ishlarining umumiy ahvoli bilan qiziqdi va uning umumiy ahvoli bilan tanishishga muvaffaq bo'ldi.

Akademik V. V. Bartol'd hayoti fanning rivojlanishida, Sharq xalqlarining boy tarixiy o'tmishini o'rganish yo'lida qilingan fidokorona mehnatning yorqin namunasidir. O'zbek xalqi, O'rta Osiyo va Qozogiston xalqlari V. V. Bartol'dning yorqin xotirasini abadiy yodda saqlaydilar.

Bartol'dning sobiq ittifoq davrida bosilib chiqqan sharxshunoslikka oid asosiy nashrlarda aktiv qatnashishi va samarali ilmiy-adabiy faoliyati, ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanadi.

«Akademik V. V. Bartol'd asarlarining ro'yxati» dan ma'lum bo'lishicha (bu ro'yxat 1892 yildan to 1930 yilgacha yozilgan asarlarni o'z ichiga olgan bo'lib, olimning shaxsan ko'zatuvi va qo'shimchalari bilan tuzilgan), uning 350 ta asosiy asarlaridan 136 tayin sobiq ittifoq xokimiyati davrida 1918-1930 yillar mobaynida nashr etilgan. Bunda, xar vaqtdagidek, uning O'rta Osiyo tarixiga oid asarlari birinchi o'rinda to'radi.

Qulingizdagi diplom ishi ham uning ajoyib hayotidan, qimmatli ilmiy merosidan hikoya qiladi.

I Bob. V. V. Bartol'dning hayoti va O'rta Osiyo tarixini urganishidagi ilk tadqiqotlari.

- **V. V. Bartol'dning hayoti va ilmiy faoliyat**

V. V. Bartol'dning «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» nomli klassik asarining (1963 yilgi) nashriga yozilgan so'z boshida Bartol'd ulug' tarixchi deb ta'riflangan edi.

V. V. Bartol'dning hayot yo'li o'z mazmuniga ko'ra, yo'qsak iqtidorli va ko'p qirrali olim faoliyatining tashkil topishi va rivojlanishining tipik namunasidir. Yo'qsak qattiyatlilik, halollik va fikrlashda dadillik, o'ziga va o'zgalarga nisbatan qattiq talabchanlik xususiyatlariga ega bo'lgan inson Bartol'dning ichki dunyosi ancha mo'rakkabdir.

Bartol'd doimo vaqtni qattiq hisobga olar, o'zining bo'tun kuch va quvvatini ilmiy ishlarga bag'ishlab, har soat, har daqiqani unumli foydalanishga tirishardi. U nihoyatda ser g'ayrat odam edi. Bartol'dning shogirdi professor A.Yu.Yakubovskiy ustoz to'g'risida: "u naqilga aylanib ketgan zo'r xotiraga va o'zini soat yanglig' aniq

harakat qiladigan mexanizmga aylantirib yuborgan ishchanlik qobiliyatiga ega edi», — deb eslaydi. Bartol'd keraksiz mavzulardagi to'to'riqsiz gap-so'zlarni yomon ko'rar, fan olamida daydib yo'rgan tasodifiy knshilarga munosabati keskin va mo'rosasiz edi. (Akademik N.Ya. Marr: Bartol'd hech kimning, agar u o'zining tug'ishgan birodari bo'lsa ham munofiqligini sira kechirmasdi, deb yozadi). Bartol'dning oq ko'ngil, qalbi ochiq, kamtar, ilmdagi o'z safdoshlariga sodiq do'st, yosh olimlarga gamxo'r ustoz bo'lgan chin inson ekanligini har kim ham darhol bilib ololmasdi («Ish sohasida,— deb eslaydi professor V.F.Minorskiy,— Bartol'd bilimdon, sodiq do'st hamda bironing talant va tashabbusini birinchi bo'lib qo'llab-quvvatlaydigan kishi edi»).

Bartol'dning olim sifatidagi bo'tun ongli hayoti o'zining aql-zakovati va kuch-quvvatini bir umrga o'zi tanlab olgan ilm sohasiga baxsh etishning yorqin namunasidir.

Vasiliy Vladimirovich Bartol'd 1869 yil 3 (15) noyabrda Peterbo'rgda “burjua oilasi”da dunyoga keldi. Uning otasi aslida rigalik bo'lib, birja dalloli edi, onasi Peterbo'rgdagi bir bank xo'jayinining qizi bo'lgan.

V. V. Bartol'dning eslashicha, otasidan meros qolgan mablag' uning ilm bilan mashg'ul bo'lish va o'z ma'lumotini oshirish hamda ilm yo'lidagi sayohatlar uchun kerak bo'lgan barcha xarajatlarning yuziga borib o'tirmaslik imkonini bergan.

V. V. Bartol'd maktabda o'qib yo'rgan chog'laridayoq Shrq xalqlari tarixi bilan qiziqib qoldi. 1887 yilda u Peterbo'rgdagi 8-gimnaziyani oltin medal bilan tamomlaydi. Usha yilning ko'zida Peterbo'rg universiteti Sharq tillari fakul'tetining arab-fors, turk, tatar bo'limiga o'qishga kiradi. Bu erda u usha zamonning ko'zga ko'ringan sharqshunos olimlari N.I.Veselovskiy, K.P.Patkanov, V. D. Smirnov, V. R. Rozen kabilardan leksiya tinglaydi.

Universitetda V. V. Bartol'dning ilmiy qiziqishlari asosan, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining o'rta asr tarixiga qaratildi. Olimning aytishiga qaraganda, uning tarixga qiziqishini oila a'zolari ham ma'qullashgan. Otasining ma'lumoti keng

(u usha zamon kommersiya bilim yo'rtini tugallagan edi) bulmasa ham, ilmning qadriga yetar, o'g'lining bolalarcha bajargan dastlabki sodda tajribalarini, undagi tarixchiga xos uncha- muncha talant uchqunlarini ko'rib, o'g'lining ilmga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Sharq tillarining zo'r bilimdoni va mutaxassisi, o'rta asr sharq yozuvlari yodgorliklarini chuqor tahlil qilish usullarini mohirona egallagan akademik V. R. Rozen yosh Bartol'dning sevimli o'qituvchisi va yaqin ustози edi.

Fakultet o'qituvchilari V. R. Rozen, N. I. Veselovskiy va boshqalar V. V. Bartol'dda odatdan tashqari qobiliyat borligini, uning arab, fors va turk tillarini yaxshi va dadil egallayotganini hamda tadqiqot ishlariga moyilligi borligini tez orada payqab qolishdi. Birinchi ko'rsdalik chog'idayoq V. V. Bartol'd yaxshi o'qiyotgan talabalar orasida o'z qobiliyati bilan V. R. Rozenning e'tiborini o'ziga tortadi. U fakultetda o'qitilayotgan barcha zaruriy fanlarni zo'r tirishqoqlik bilan o'rganib, nisbatan juda erta mutaxassislikka alohida muhabbat va qiziqish paydo bo'iladi. Ikkinchi ko'rsdan boshlab esa uning kelgusida Sharq tarixchisi bo'lib etishishi ravshan bo'lib qoladi.

Rozen o'z shogirdida yozma manbalardan tegishli Sharq mamlakati va viloyatlarining tarixiy geografiyasi hamda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir bo'lgan, shuningdek, xronologiya va voqealar borishini aniq belgilashda yordam beruvchi ma'lumotlarni mumkin qadar ko'proq bilib olishga qiziqish tug'dirdi. Shuningdek, V. V. Bartol'd Rozenning Sharq mamlakatlari va xalqlarining jahon tarixida uynagan roli to'g'risidagi qarashlarini ham qabul qildi. Reaksion burjua olimlari tomonidan bu rolni pasaytirish, jahon tarixi solnomasnda Sharqni ikkinchi yoki uchinchi darajali o'ringa tushirishga, Sharq tarixini mensimaslikka qaratilgan o'rinishlar Rozen singari Bartol'd uchun ham doimo yot edi. Bartol'd ustози izidan borib, irqchilik ko'rinishlariga, Sharq xalqlariga, jumladan, insonga dushmanlik bilan qarashga qarshi chiqdi.

Bartol'd Rozenni o'zining eng yaqin va sevimli o'qituvchisi deb biladi va uning vasiyatlariga umr buyi sodiq qoladi. Bu haqda Bartol'dning o'zi shunday deydi:

«Baron Rozenning vasiyatlari qon-qonimga singib ketdi, men uning vasiyatlarini vujudimga guyo ona so'ti bilan birga kirgandek his etaman... Men Rozen maktabidan kim bo'lib chiqqan bo'lsam, shundoqligimcha qabrga kiraman». Rozenning vafotidan so'ng yigirma yil o'tgach (1928 yil 1 yanvarda), «Shu oyda baron Rozenning vafot etganiga 20 yil to'ladi ... mening nazdimda esa u xuddi kechagina o'lgandek», deb yozadi u.

«V. V. Bartol'd, deb guvohlik beradi A. Yu. Yakubovskiy, V. R. Rozen maktabidan sharq tarixisiz chinakam jahon tarixini yaratib, kishilikning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini to'la-to'kis ochib bo'lmaydi, degan xulosani chiqarib oldi. Rozenning boshqa shogirdlari singari Bartol'd ham sharq xalqlarining madaniy yo'tuqlarini yo'qsak baholadi, bu madaniyatning qadimda va o'rta asrlar davrida yevropa madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirini tan oldi va bu ta'sirni xalqlar tarixidagi faktlarda hamda tasviriy san'at, arxitekto'ra va madaniy hayotning boshqa sohalarida ko'rsatishga harakatqildi».

Yosh olimning diqqatini, ayniqsa, O'rta Osiyo ko'proq o'ziga tortdi. sakkiz million nafar (XIX asr oxirlaridagi hisob bo'yicha) aholisi bo'lgan bu bepoyon mamlakatni chor hukumati rus kapitalistlari va pomeschchiklarning mustamlakasiga aylantirgan edi.

O'rta Osiyo mehnatkash ommasi chor mustamlakachilarining, savdogar va boshqa tekinxo'rlarning, shuningdek, mahalliy ekspluatatorlarning zulmi ostida ezilib keldi. O'rta Osiyo o'sha vaqtlarda iqtisodiy va texnik jixatdan qaloq va xalqi huquqsiz, qashshoq bir o'lka hisoblanardi. Lekin, ayni zamonda, u to'rli-tuman tabiiy imkoniyat va boyliklarga: serhosil vohalar, bepoyon dasht va chullar, baland tog'lar, yashnagan vodiylar, Sir va Amu kabi daryolar hamda boshqa ko'p narsalarga ega edi. O'rta Osiyoning yer osti boyliklari qariyb tekshirilmagandi. Lekin o'sha vaqtlarda uncha-muncha ma'lum bo'lgan konlar bu o'lkaning neft, toshko'mir, to'rli qo'rilish materiallari, nodir metallar kabi ko'pgina qazilmalarga boy ekanidan darak berardi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga kelsak, shuni aytish kerakki, chor hukumati va o'lka ma'mo'riyati ularni o'tmishini o'rganishga qiziqmadi. Biroq o'lkaning to'rli joylarida uchraydigan bir zamonlar barq o'rgan hayot izlari qadimiy shaharlar, manzilgohlar, qal'alar, saroylar, so'g'orish kanallarining o'rni, mohir ustalar qo'li bilan bunyod qilingan hashamatli maqbaralar, karvon saroylar, Madrasa hamda masjidlar va hokazolar binolar O'rta Osiyoning ko'p asrlik yorqin o'tmishga ega bo'lgan o'lka ekanligidan dalolat berardi. Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa bir qancha O'rta Osiyo shaharlari o'zining ajoyib tarixiy-me'morchilik yodgorliklari bilan diqqatni o'ziga tortardi. Afrosiyob, Marv yaqinidagi manzilgoh va boshqa qadimiy shaharlar ishlab chiqarish qo'rollari, sopol idishlar, haykalchalar, tanga pullar va boshqa qadimiy buyumlarga juda boy edi. Jahongir Temo'r va Samarqand yaqinida jahonga mashxo'r rasadxona bino qo'rdigan podsho-olim Ulug'bek singari tarixiy shaxslar ham shu O'rta Osiyodan chiqqan edi.

Rossiya, Angliya, Germaniya, Franqiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarning ko'tubxona va muzeylarida O'rta Osiyoga tegishli qadimiy qo'lyozmalar saqlangan bo'lib, u asarlarda O'rta Osiyo hududida sodir bo'lgan tarixiy voqealar va bu yerda yashovchi xalqlarning hayoti va to'rmushi to'g'risida boy ma'lumotlar keltirilgan. Ular orasida Xorazmiy, Beruniy, Rudakiy, Ibn Sino, Navoiy, Jomiy va boshqa buyo'q olim, mo'tafakkir va shoirlarning asarlari ham bor edi.

Bu qo'lyozmalarning bir qismi o'sha vaqtlarda mutaxassislar tomonidan o'rganilib, nashr etilgan va yevropa tillariga tarjima qilingan edi, lekin qo'lyozmalarning talay qismi qo'l o'rilmagan holda ko'tubxona va arxivlarda «o'lik yo'q» bo'lib qalashib yotardi. Yuzlab va minglab qo'lyozmalar esa ayrim shaxslarning qo'lida bo'lib, bozorlarda sotilar va ko'pincha, yuqolib ketardi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo tarixi bo'yicha umumlashtirilgan katta va jiddiy asarlar hali yaratilmagan edi. Bunday umumlashtirilgan asar yaratish uchun o'sha vaqtlarda olimlar qo'lida faktik materiallar juda ham oz edi.

1891 yilda Bartol'd universitetni birinchi darajali diplom bilan bitiradi. Shu yili u ustoz V. R. Rozenning maslahati bilan o'z bilimlarini oshirish va ilmiy tadqiqotlarga kirishish uchun ilk bor xorijiy mamlakatlarga—Finlyandiya, Germaniya, Shvetsariya, Shimoliy Italiya, Avstro-Vengriyaga safarga chiqadi.

Bartol'dning Gall shahrida bo'lishi ayniqsa foydali bo'ldi. Bu yerdagi universitetda u norasmiy talaba sifatida G'arbiy yevropaning yirik sharqshunos olimi Avgust Myo'llerning leksiya va mashg'ulotlariga qatnashib to'rdi, Myo'ller (1848—1892) xususan rus ilmiy adabiyotiga e'tibor bilan qarar va rus tilini yaxshi bilar edi. Bartol'dning o'zi ham keyinchalik Myo'ller bilan tanishgani uning hayotidagi eng yaxshi xotiralardan biri ekanligini va leksiyalaridan foydalanish baxtiga muyassar bo'lganini, marhum ustozining xotirasini har doim samimiy minnatdorchilik bilan eslayajagini qayd qilib o'tadi.

Shuningdek, Bartol'd Eduard Meyer (1855—1930), Teodor Nel'deks (1836—1930) va boqsha taniqli olimlarning leksiyalarini tinglashga ham muyassar bo'ladi. Bartol'd chet ellarda bo'lgan vaqtida Sharq tillari bo'yicha o'z bilimini oshirdi, sanskrit tilini o'rganishga kirishdi, Tabariy va boshqa sharq mualliflari asarlari asosida O'rta Osiyo, jumladan, turklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rgandi. Bartol'd o'zining xorijiy mamlakatlardagi mashg'ulotlari haqida ana shu safarining tashabbuskori hisoblanmish ustoz Rozenni muntazam ravishda xabardor qilib to'rdi.

Shunisi xarakterliki, Bartol'd G'arbiy yevropa olimlarining chuqor ilmiy bilimlariga va o'z sohalarining o'lkan bilimdoni ekanliklariga tan bergan holda, ayni chog'da, ularning umumtarixiy qarashlariga qo'shilmadi. Ayrim olimlarning yharq xalqlari va ularning tarixiy o'tmishini mensimasliklari Bartol'dning g'azabini qo'zg'atdi. g'arbiy yevropa olimlari sharq xalqlarining tarixi hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi, degan yanglish qarashlarni ilgari so'radilar. Bartol'd Rozenga yo'llagan maktubida, nemis professorlaridan o'rganish mumkin va lozim, biroq ularga ergashish kerak emas, degan fikrda ekanini ma'lum qiladi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, xorijiy mamlakatlarga qilingan safar jarayonida O'rta Osiyo to'g'risidagi manbalarni chuqur o'rganish bilan shug'ullanish zarur degan fikr Bartol'dni bo'tunlay qamrab olgandi. «Tarixiy rivojlanishning yevropa tarixi uchun ishlab chiqilgan qonuniyatlarini yo'llagan holda, qiyosiy usul yordamida O'rta Osiyo tarixining hali bir qismini o'rganishga birorta kishi ham o'rinib ko'rmagan bo'lsa kerak,— deb yozgan edi Bartol'd Rozeiga yo'llagan maktublaridan birida,— O'rta Osiyo tarixidan jiddiyroq ilmiy ko'rs yaratishni hozir, tasavvo'r qilish qiyin. O'z-o'zidan ma'lumki, buni (O'rta Osiyo tarixini) men yarata olmayman, lekin vujudga kelishini o'z asarlarim bilan (agar ulmasam va salomat bo'lsam) aqalli birmuncha tayyorlab ketish umididaman». Bartol'dning bu maktubi alohida diqqatga sazovordir. Birinchidan, u yigirma uch yashar yosh olim tasavvo'rida O'rta Osiyo va umuman, Sharq tarixi bo'yicha kelajakdagi o'z tadqiqotlarining vazifa va usullari hozirdayoq shakllana borayotganidan darak berardi. Chunonchi, u sharq tarixini o'rganishda tarixiy rivojlanishning yevropa tarixi uchun ishlab chiqilgan qonuniyatlarni qo'llagan holda qiyosiy usuldan foydalanishni o'rtaga tashlaydi. Bu qonuniyatlarni sharq tarixini o'rganishga tadbqiq qilish to'g'risida yosh olim ilgari so'rgan fikr usha vaqtlarda shubxasiz progressiv xarakterga ega edi. Ikkinchidan, agar Bartol'dning olim sifatidagi keyingi faoliyati nazarga olinsa, mazkur xat o'ziga xos bashorat xarakteriga ega bo'lganini bilib olish mumkin. Nihoyatda kamtar va o'ta talabchan Bartol'd O'rta Osiyoning ilmiy tarixini yaratish vazifasi o'z zimmasiga tushishini aslo uylamagan va bu xususda o'z vazifasini shu tarixning «vujudga kelishini aqalli birmuncha tayyorlash»dan iborat deb bilgan edi. Bartol'd bu vazifani sharaf bilan va o'z zamonasi uchun imkoni bo'lgan maksimal darajada ado etdi (O'rta Osiyoning chinakam va o'zil-kesil tarixi esa 1917 yildan so'ngina olimlarining jamoaviy kuch-g'ayratlari bilan yaratildi).

Bartol'd safardan Rossiyaga 1892 yilda qaytib keldi. Lekin keyinchalik ham, to 1929 yilgacha sayohat va ilmiy safarlar bilan bir necha bor xorijiy mamlakatlarga safar qildi. Masalan, 1895 yilda u Vildbad, Parij, London, Oksford shaharlarida

ishladi, Gollandiyada bo'ldi; 1898 yilda Germaniya (Bavariya), Gollandiya, Belgiya, Angliya, Fransiya; 1905 yilda Germaniya (Prussiya, Saksoniya) va Shvetsariya (Tirolda); 1906 yilda Avstro-Vengriya (Serbiya), Bolgariya, Turkiya, Misrda; 1908—1909 yillarda Finlandiya, Italiya, Avstro-Vengriya (Budapesht); 1911 yilda Angliya, Amerika, Germaniya, Fransiya; 1921 yilda Vena, Tyubingen, Gambo'rg, Lyubek shaharlarida; 1912—1913 yillarda Shvetsiya va Norvegiya; 1914 yilda Shvetsiya, Daniya, Angliya, Italiya, Gretsiya, Bolgariya, Ruminiya; 1917 yilda Finlandiya; 1921 —1923 yillarda Finlandiya, Angliya, Bel'giya, Gollandiya, Germaniya, Estoniya; 1926 yilda Turkiya; 1929 yilda Germaniya bo'ldi.

Bartol'd birinchi marotaba xorijiy mamlakatlarga junab ketganidan (1891) so'ng sal vaqt o'tgach, Peterbo'rg universitetining sharq tillari fakultetida o'zining qobiliyatli va umidli shogirdidan ajrab qolmaslik maqsadida, 1892 - yilda uni Sharq tarixi kafedrasida bo'yicha professorlikka tayyorlash uchun universitet huzurida qoldirdi. Bartol'dning 1893 yilda Sharq tarixi magistri darajasiga muvaffaqiyatli sinov topshirganligi bu ishning amalga oshirishidagi bosqichlardan biri bo'di.

Xuddi shu 1892 yili uning dastlabki kichik bosma- asarlari paydo bo'lgan edi.

- **V. V. Bartol'dning O'rta Osiyo tarixiga doir ilk tadqiqotlari.**

1893 yilda V. V. Bartol'd O'rta Osiyoga birinchi ilmiy safar qiladi. Rassom va etnograf S. M. Dudin hamroh bo'lgan ushbu safardan maqsad «bu o'lkaning o'tmishi to'g'risidagi yozma ma'lumotlarga qo'shimcha ular qadimiy xalqlar manzilgohlaridan qolgan izlar to'g'risida ma'lumotlar to'plash hamda qadimiy shahar va istehkomlar xarobalarining mumkin qadar qisqacha ta'rifini keltirish»dan iborat edi.

Usha vaqtlarda olimlarning O'rta Osiyo bo'ylab qiladigan safari ma'lum o'quv, jismoniy chidamlilik, yo'lning xilma-xil azob-o'qubatlarini chidam bilan yenga olish talab etiladigan juda mushkul ish ekaniga qaramay, Bartol'd o'z oldiga quygan vazifani bajarishda nihoyatda g'ayrat ko'rsatdi.

(Bartol'd Toshkentga kelishi bilan Chimkent — Avliyoota marshro'ta va undan keyin Talas daryosi (Oxum degan joydan shimolga, Dmitrievskoe qishlog'idan janubga tomon) bo'ylab safarga junadi. Bu marshro't yo'lida uchragan bir qancha qadimgi manzilgohlar va ayrim yodgorliklar kuzdan kechirildi va tavsifi yozib olindi.)

Yo'lda sodir bo'lgan baxtsiz hodisa (otdan yiqilib oyogi sinadi) sababli, Bartol'd Toshkentga qaytishga majbo'r bo'ladi va shahardagi xarbiy gospitalga yotqiziladi. U Toshkentda qishni o'tkazishga majbo'r bo'ladi. Bu hol O'rta Osiyoni o'rganish sohasida mahalliy arboblardan bilan o'zoq yillik aloqalarining boshlanishiga asos bo'ldi. Bartol'd hayoti va faoliyatining ana shu yillari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish o'rinli bo'lo'r edi.

Usha vaqtlarda O'rta Osiyoda madaniy kadrlar nihoyatda oz edi. Lekin vaqtning o'tishi bilan ana shu kam sonli mahalliy ziyolilar orasidan O'rta Osiyoning tarixiy o'tmishi bilan chuqur va beraraz qiziquvchi kishilar go'ruhi (mansabdorlar, o'qituvchilar, vrachlar, injenerlar va boshqa soha mutaxassislari) vujudga keldi. Ular qadimiy yodgorliklarni (qo'rg'on, maqbaralarni, eski binolar xarobalarini) ro'yxat qilish va ularning tavsifini yozib borish, tasodifiy topilmalarni (tanga-chaqalar, sopol va metall buyumlar) yig'ish va saqlash, xalq afsonalari va o'lkaning o'tmishi to'g'risidagi rivoyatlarni yozib borish hamda Sharq qo'lyozmalarini o'rganish yo'li bilan bu o'lka to'g'risida zarur ma'lumotlar to'plashga harakat qildilar. Ular orasida maxsus tarixiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar nihoyatda oz edi. Borlari esa havaskor o'lkashunoslar edi, xolos. Shuning uchun ham ular g'ayri ixtiyoriy xatoliklardan, ishda sodir bo'ladigan kustarchilikdan ularni ogohlantirib, faoliyatlarini to'g'ri yo'lga yunaltirib to'ruvchi mutaxassis olimlarning maslahat va takliflariga hali juda muhtoj edilar.

Mahalliy o'lkashunoslar Bartol'dni o'zlarining sodiq va sevimli ustozi hamda rahbari deb qabul qildilar. Bartol'd bilan ular orasida mustahkam ilmiy aloqa o'rnatildi, doimiy yozishmalar olib borildi. Bu aloqalar keyinchalik ham davom etdi. Shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, yirik olim bilan uning kichik kasbdoshlari

— mahalliy o'lkashunoslar, jumladan, 1895 yilda Bartol'dning o'z ko'magi bilan Toshkentda vujudga kelgan Turkiston arxeologiya havaskorlari tugaragi a'zolari o'rtasidagi yaqin va davomli o'zaro foydali hamkorlikning bu singari boshqa biror namunasi butun vatan o'lkashunosligi tarixida ko'rilmagan edi. Mazkur ilmiy-o'lkashunoslik tugaragi 1917 yilgacha, ya'ni yigirma yildan ko'proq vaqt davom etib, qadimgi O'rta Osiyo yodgorliklarini hisobga olish, tavsiflash va ularni o'rganish ishiga ko'p hissa qo'shdi.

Bartol'dning mahalliy sharqshunoslarga ko'rsatgan yordami qanchalik zo'r bo'lganini, masalan, shunday faktdan bilish mumkin. O'tgan asrning 80-yillari oxirlarida taniqli havaskor sharqshunos N. S. Likoshin o'rta asr tarixchisi Abu Bakr Muhammad bin Ja'far an-Narshaxiyning O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri hisoblangan «Tarixi Narshaxiy» nomli kitobini forschadan rus tiliga tarjima qiladi. Bu kitob Buxoro tarixi va tarixiy topografiyasi bo'yicha juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga olgan katta asar edi. Shuning uchun ham uning Likoshin tomonidan tarjima qilinganligi mahalliy ilmiy hayotda muxim hodisa va Sharqshunoslik tarixida diqqatga sazovor voqea bo'ldi.

Likoshin mazkur asar tarjimasiga ko'p mehnat sarflagan bo'lsada, lekin bu ishning barcha qiyinchiliklarini oxirigacha yenga olmadi. Narshaxiy tekstida Likoshin tushunolmagan ba'zi so'zlar, iboralar hamda parchalar uchrardi. Bartol'd Likoshin tarjimasini ma'qulladi va unga muharrir bo'lishga rozi bo'ldi. Tarjima 1897 yilda Tashkentda chop etildi. Bartol'd Likoshin tarjima qilgan mazkur kitobni tazfir qilibgina qolmay, shu bilan birga, Narshaxiy asaridagi murakkab joylarning rus tiliga to'g'ri va aniq tarjima qilinishiga hamda uni ilmiy izohlar bilan to'ldirishga ham yordam qildi. Tarjima jarayonida shunday vaqtlar ham bo'ldiki, Likoshin ayrim mujmal joylarga duch kelib qolib, tarjimani davom ettirishdan voz kechishga borib etadi. Shunday kezlarda Bartol'd Likoshinga dalda berib, boshlagan ishining muvaffaqiyatli tugallanajagi to'g'risida unda ishonch to'g'diradi. Natijada Bartol'dning o'lkan yordami tufayli tarjima nashrga tayyor bo'ladi.

Bartol'd mahalliy xodimlarning ilm sohasidagi faoliyatini yo'qsak qadrlangan. Bu xususta uning 1900 yilda universitetni tamomlagan talabalar uchun mahalliy xodimlarning Turkistondagi vazifalari to'g'risida o'qigan leksiylari ham diqqatga sazovor. Olim arxividan topilgan va e'lon qilinmagan mazkur leksiya qo'lyozmalarida shunday so'zlar bor: «Sharqshunoslikning ilmiy ahamiyati boshqa ko'p sozhalardan shu bilan farq qiladiki, u hamma zarur qo'llanma va manbalar mavjud etib qo'yilgan yirik ilmiy markazlarda istiqomat qilib, zarurat taqozosi bilangina uncha-muncha safarga chiqib turuvchi mutaxassislar ishi bilan qoniqmaydi. Buning uchun joylarni yaxshi biladigan mahalliy kishilarning yordamiga tayangan holda Sharq turmushini yillar mobaynida chuqur va har tomonlama o'rganish talab etiladi».

1893 yilgi shikastlanishdan bir yil o'tgach, oyoqqa turgan Bartol'd O'rta Osiyo bo'yalab safarini yana davom ettiradi. Bartol'd va uning hamrohlari Chuy va Ili daryolari vodiylaridagi qadimiy yodgorliklarni ko'zdan kechirishadi. Bartol'd shuningdek, Xo'jand, Oqtepa, Nov, O'ratepa, Qirg'iziston hamda hozirgi Tojikiston territoriyasidagi boshqa joylarda ham bo'ldi. Bartol'dning 1893—1894 yillardagi safari to'g'risidagi hisoboti Sharqshunoslik tarixida e'lon qilingan ilk ma'lumotlardan biri edi. Bu ma'lumotlarda Bartol'd O'rta asr arxeologik obidalar bilan o'rta asr yozma manbalarini birga qo'shib tadqiq qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ochiq-oydin namoyish qildi.

Bartol'dning safardan oldin O'rta Osiyo tarixiga oid yozma manbalarni sinchiklab o'rganib chiqqanligi hisobotning yo'qsak darajada, sifatli chiqishiga sababchi bo'ldi. Mana u manbalar: xitoy tarixchilarining J-Degin, YU. Kloprot, N. Ya- Bichurin tomonidan to'plangan mo'g'ullargacha bo'lgan davrga oid ma'lumotlari, Syuan- Szan sayohatlari, IX—X asrlardagi arab geograflarining ma'lumotlari, Xitoy va yevropa sayyohlarining mo'g'ullargacha bo'lgan davrga oid ma'lumotlari, «Mo'g'ullar tarixi bo'yicha musulmon tarixchilarining asarlari». Bu manbalar ro'yxatini Bartol'd o'z hisobotining so'z boshisida keltirgan.

1896 yilda Bartol'd Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetiga g'ayri rasmiy dotsent lavozimiga tasdiqlanadi va shu yildan boshlab leksiya o'qishga kirishadi. Shu yusinda Bartol'dning ko'p yillik va yo'qsak samarali pedagogik faoliyati boshlanadi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, Bartol'd-pedagog darslarda tinglovchilarni o'z so'zlariga qoyil qoldirish yoki bayon qilayotgan tekstiga ataylab ma'nodorlik tusi berishni mutlaqo xayoliga ham keltirmagan holda pastroq va bir xil ovoz bilan leksiya o'qigan. Yuzaki qaraganda uning leksiyalari ozmi-ko'pmi «quruq» va «qiziqarsiz» tuyulgan. Biroq u o'tilayotgan materialni juda izchil, o'ta mantiliy tarzda, juda saralangan va jiddiy tekshirilgan muhim tarixiy faktlar bilan to'ldirgan holda bayon qilgan. Bartol'd leksiyasini diqqat bilan tinglagan kishi o'z bilimini boyitib, bu leksiyalarni bir umrga xotirida saqlab qolardi.

Bartol'd o'z faoliyatini ilmiy mashg'ulotlar bilan pedagogik sohadagi ishlarini birga qo'shib olib bormaslikni tasavvur qilolmasdi. U leksiyalariga tinglovchilar har vaqt minnatdorlik munosabatida bo'lganliklarini qonuniy qoniqish bilan necha bor ta'kidlagan. Uning 1904 yil 16 mart va 1905 yil 29 oktyabrda yozgan xatlarida shunday satrlar bor: «Xayrlashuv chog'i talabalar menga olqishlar yog'dirishdi . .. Men azbaroyi xijolatda qolganimdan, ular bilan do'rustroq xayrlashmasdanoq auditoriyadan tezroq chiqib ketishga shoshildim .. Mening leksiyalarim jazb etgan ko'p kishilik auditoriya har chok, menga olqishlar yog'dirishardi, biroq men bunday vaziyatlarga sira kunika olmasdim».

Birinchi rus inqilobining dastlabki yillarida talabalar o'z o'qituvchilarining xulq-atvori va ijtimoiy qiyofalariga, ular o'qiyotgan leksiyalar mazmuniga, o'zlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lishayotganiga alohida diqqat bilan qarashar edi. Studentlar ommasining kayfiyat va talablariga yot bo'lgan o'qituvchilar va ularning leksiyalari talabalar tomonidan sergaklik, begonalik ruhida oshkora beparvolik va hatto adovat vaziyatida ko'tib olinardi. Binobarin, o'z ishiga butun vujudi bilan berilgan Bartol'd pedagog qiyofasi ham, uning konservativ qarashlardan va Sharq

xalqlari to'g'risida noto'g'ri fikrlardan tamom xoli bo'lgan leksiylari mazmuni ham usha bo'ronli yillardagi talabalar ommasining kayfiyatiga mos tushardi.

1898 yilda V. V. Bartol'd «Yettisuv tarixidan ocherk» nomli asarini nashr qildirdi. Bu asarda olim birinchi bo'lib eradan avvalgi II asrdan to XVIII asrning ikkinchi yarmi boshlarigacha bo'lgan davrdagi Yettisuv tarixining yig'ma va ilmiy jihatdan aniq mulohaza berishga intildi. Bu asar Bartol'dning fikricha, eng muvaffaqiyatli chiqdan bo'lib, uning ilmiy ijodiyotida ko'zga ko'rinarli o'rinni egalladi va hozirgi kungacha o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Bartol'd universitetda Sharq tillari fakultetining to'rli guruhlarida hamda umumfakultet guruhlarida majburiy va majburiy bo'lmagan umumiy va maxsus kurslar bo'yicha leksiylar o'qidi. Masalan, umumiy kurslar bo'yicha o'qigan leksiylari: «yevropada sharq bilan tanishish tarixi», «Rossiyada Sharq bilan tanishish tarixi», «Eronning tarixiy geografik obzori», «YYevropa va Rossiyada Old Osiyoni o'rganish tarixi» va hokazolar. «Sharq xalifaligi tarixi», «Turkiston tarixi», «yevropa va Rossiyada Old Osiyo hamda Hindistonni o'ranish tarixi», «Sharq tarixini o'rganishda tarixiy metodologiyani tatbiq etish masalalari», «O'rta Osiyo geografiyasi va etnografiyasi» kabi leksiylar Bartol'd o'qigan maxsus kurslar jumlasidandir. Bundan tashqari, «Sharq numizmatikasi», «Sharq tarixi masalalari bo'yicha suhbatlar» hamda fakultetni bitiruvchilarning Turkistonda olib boradigan vazifalari to'g'risida ham alohida leksiylar o'qigan.

Bartol'dning 1896 yil 8 aprelda universitetda o'qigan birinchi leksiysi «Chingizxon imperiyasining tashkil topishi» degan mavzuga barishlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, yosh olim bu imperiyaning tashkil topishiga o'z leksiysida ayrim mo'g'ul hukmdorlari va ularning guruhlarini manfaatining xokimiyat uchun bo'lgan kurashda o'zaro to'qnashuvlariga yoki qabilalar va urug'lar o'rtasida yuz bergan ko'rashlarga emas, balki ko'proq, XII asr oxirlari va XIII asr boshlarida mo'g'ul jamiyatning ichkarisida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga, ya'ni sinfiy ko'rashlarga bog'lab tahlil qildi. Bartol'dning fikricha, Chingizxon so'zining chin

ma'nosida «xalq rahbari» emas, u vujudga keltirgan davlat tuzumi mutlaqo aristokratik xarakterga ega edi. Temuchin (Chingizxon) o'zini qullab-quvvatlagan sahro aristokratlari (noyonlar, ko'chmanchi chorvador a'yonlar) ning rahnamosi va ular manfaatining ifodachisi bo'lsa, boylik yoki shon-shuhrat emas, balki kundalik tirikchilik g'amini uylagan oddiy xalq esa Jamirat qabilasi rahbarlaridan biri - Deamuh atrofiga jipslashdi, deb ko'rsatadi Bartol'd.

Bartol'dning Chingizxon imperiyasi tashkil topishi sabablari to'g'risidagi bu qarashlari uning murakkab va kam o'rganilgan masala tahliliga puxta uylab yondashganidan dalolat beradi.

Bartol'd Sharq xalq eposlari va folkloriga (xalq orzaki ijodiyotiga) doimo qiziqib keldi. Uning bu sohadagi qator maqolalaridan tashqari «Kitobi Qo'rqt» («Bobom Qo'rqt kitobi») degan o'g'uzlarning qahramonlik eposining izohlari ilova qilingan va 1894 yildan nashr etila boshlagan ajoyib tarjimasini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Bu epos o'rta asrlarning buyo'q yodgorligi bo'lib, u turkmanlar va boshqa xalqlarning tarixiy o'tmishini (IX—XV asrlar tarixini) o'rganishda muhim rol uynovchi va ko'chmanchi turkiy qabilalarning tinch hamda urush yillaridagi hayoti va turmushlarini yorqin badiiy shaklda ifodalovchi yagona manba hisoblanadi. «Kitobi Ko'rqt» qo'lyozmasini o'rganish ustida Bartol'd uzoq yillar mehnat qildi.

Turkmanlar, ozarbayjonlar va boshqa xalqlarning tarixiy o'tmishini o'rganishda nihoyatda muhim bo'lgan qadimiy turkiy yozuvning bu nodir yodgorligini tarjima qilishda, V. M. Jirmunskiy hamda A. N. Konovlarning iborasi bilan aytganda, Bartol'd «tarjimaning filologik aniqligini, qo'lyozmaning o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan chinakam mohirona birlashtirgan».

1897 yilda V. V. Bartol'd Nuriddin Lutfullo bin Abdullo al Daraviyning (Dofizi Abru, 832/1431) Amudaryoning ilgarigi oqimi masalasiga doir geografik asarlaridan parchalar (qo'lyozma matnlari va tarjimalar tarzida) nashr qiladi. Bartol'd bunda hofizi Abru keltirgan ma'lumotlarni Hamdulloh Kazvinij ma'lumotlari hamda

O'rta Osiyo shaharlari va viloyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan taqqoslaydi. Bartol'd nashr qildirgan originalda va hofizi Abru bilan Kazviniiy asarlaridan ayrim parchalarning o'zi bajargan izohli tarjimalarida «Jayxun daryosi, Xozar dengizi, Balx va Xo'jand daryolari» to'g'risida ma'lumotlar keltiradi. Shuningdek,) Hofizi Abruning Movarounnahr (Amudaryo bilan Sirdaryo oraligidagi erlar), xususan, Samarqand, Buxoro atroflari va O'rta Osiyodagi aholi yashaydigan boshqa muhim joylar tavsifi berilgan asarlaridan parchalar keltiradi.

1899 yili N. A. Aristovning «Turkiy qabilalar va xalqlarning etnik tarkibi hamda ularning nufuzi to'g'risida ma'lumotlar» degan kitobiga yozgan retsenziyasi bosilib chiqdi. Bu retsenziyada Bartol'dning «Sharq tarixini o'rganish bir narsani — xuddi G'arbdagidek, Sharqdagi harakatlar ko'pchilik odamlarning manfaati taqozosi bilan ruy berganligi, Osiyoda ham, yevropada ham tarixiy taraqqiyotning ayni bir xil qonunlari amal qilishi to'g'risidagi oddiy haqiqatni kishi ongida tobora ko'proq jonlantiradi» degan umumiy xulosasi o'z ifodasini topgan edi. Yana shunisi ham muhimki, kuchmanchi davlatlarning tashkil topish sabablarini bayon qilib, Bartol'd u yerlarda ayrim urug' va qabilalar o'rtasida bo'lib to'radigan kurash tushunchasidan ko'ra sinfiy kurash tushunchasiga ko'proq mos keluvchi hodisalar sodir bo'lganmi, degan masalani ochiq qoldirganini aytadi. Bundan ko'rinib to'ribdiki, «sinfiy kurash» iborasi uning dastlabki asarlaridayoq tilga olingan.

U yillarda Bartol'd o'z dissertatsiyasi ustida katta ish olib boradi. Uning Sharq tarixi magistri degan ilmiy darajani olish uchun tayyorlagan bu dissertatsiyasida o'z ifodasini topgan «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» temasidagi mukammal tadqiqotlari hamma tomonidan qizg'in ma'qullandi. Bartol'dning bu tadqiqotlari usha vaqtdayoq jahon sharqshunosligi oltin fondidan mustahkam o'rin oladi.

Dissertatsiya himoyasi 1900 yil 19 noyabr (2 dekabr) kuni Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti majlisida o'tkaziladi. Bu vaqtda Bartol'dning dissertatsiyaga asos qilib olgan tadqiqotlari kitob holida bosmadan chiqqan edi: uning

birinchi («Matinlar») qismi 1898 yilda, ikkinchi («Tadqiqotlar») qismi 1900 yilda nashr etilgan.

Bartol'dning o'z so'zicha, asarning ikkinchi qismida u: «O'lkaning mo'g'ullar kelguniga qadar bo'lgan davrdagi tarixi nima bilan belgilanadi, mo'g'ullar Turkistonga nima olib keldi va o'lkani zabt etish qanday sodir bo'ldi», - degan savollarga javob berishga intiladi.

Bartol'd asarida O'rta Osiyoning mo'g'ullar bosqinidan avvalgi davrdagi tarixi, mo'g'ullarning bu yerlarga kelishi va shuningdek, Chingizxon haqida, mo'g'ullar hukmronligi davridagi Turkiston to'g'risida batafsil hikoya qiladi.

Muallif o'z asarini Turkiston tarixi bo'yicha arab tarixnavislari va geograflaridan tortib temuriylar davri tarixchilarigacha bo'lgan qo'lyozma manbalarning tanqidiy obzori va bahosi berilgan muqaddima bilan boshlaydi. Keyin asosiy boblar boshlanadi, chunonchi: Turkiston hududining geografik ocherki (Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Sirdaryo havzalari — birinchi bob); o'lkaning mo'g'ullar bosqinidan avvalgi tarixidan ocherklar (Movarounnahrning arab istilosi arafasidagi va arablar hukmronligi davridagi, shuningdek, tohiriylar, somoniylar, sofforiylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqlar, xorazmshohlar hukmronlik qilgan zamonlardagi hayot lavhalari - ikkinchi va uchinchi boblar); nihoyat Chingizxon imperiyasi va uning Turkistonni bosib olishi tarixidan ocherklar (bu to'rtinchi bobda Chingizxon shaxsi, uning «qudratli iroda»si va «zo'r tashkilotchilik qobiliyati» to'g'risida, uning yo'qsak salohiyot va daho sohibi ekanligi va, ayni vaqtda, shafqatsiz va qonxo'r fotih ekanligi tavsif qilinadi).

Bartol'd har tomonlama chuqur o'rganib chiqqan bir qancha o'rta asr mualliflarining (G'ardiziy, al-G'arnatiy. Nasafiy, Bakran, Juvayniy, Damdullox Kazviniy, fizi Abru va boshqalarning) qo'lyozma asarlaridagi O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlarni o'z tadqiqotiga asos qilib oladi.

Qo'lyozmalar ustida ishlash jarayonida Bartol'dning ajoyib iste'dodi — Sharq qo'lyozmalaridan fan uchun eng foydali barcha narsalarni ajratib ola bilishdek

hayratomuz qobiliyati yavqol ko'rindi. Bu narsa yuzaki qaraganda oddiy bo'lib ko'rinadigan ish emas, aslo. Chunki mazkur qo'lyozmalarning mualliflari to'rli xil madaniy va bilim darajasiga, saviyaga, his, did va kayfiyatga ega hamda o'z zamonasi voqeligiga to'rlicha baho beruvchi kishilar edi. Lekin bu qiyinchilikning bir tomoni edi, xolos. Bundan tashqari, qo'lyozmalarda muayyan tarixiy voqealar to'g'risida, ma'lum bir davlat arbobi haqida va boshqa xususlarda keltirilgan ma'lumotlarning hammasini ham to'g'ri deb bo'lmasdi. Aksincha, qadimgi qo'lyozmalarda faktik ma'lumotlar, aksari, afsonalarga, ishonchli ma'lumotlar esa ishonib bo'lmaydigan naqlarga qo'shib ketgan bo'lardi. Ba'zan qo'lyozma mualliflari o'z ko'zlari bilan ko'rgan, o'zlari yaxshi bilgan voqea- xodisalarni yozsalar, ba'zi vaqtlarda to'rli voqealar to'g'risida birovlardan eshitgan narsalarini yozishardi, birovlar esa mazkur ma'lumotlarni o'z navbatida boshqa kishilardan eshitgan bo'lardi. Bundan tashqari, ko'p qo'lyozmalar ma'lum vaqt mobaynida bir emas, bir qancha kishilar tomonidan kuchirilgan va buning ustiga qo'lyozmaning asl nusxasi emas, ko'chirilgan nusxasi bo'lardi. Bu xildagi qo'lyozmalarda ko'pincha, to'rli chalkashliklar va hatto kuchiruvchilarning o'zlari kiritgan qo'shimcha va tuzatishlar uchrardi. Shuningdek, ayni bir voqea to'rli mualliflar tomonidan har xil bayon etilgan, shahar va qishloqlarning nomlari turlicha ko'rsatilgan bo'lib, ularning geografik o'рни va oralaridagi masofa taxminan hamda noaniq keltirilgan hollar ham uchraydi.

Shunga ko'ra, Sharq qo'lyozmalarini o'rganuvchi olimlardan qo'lyozma tekstlariga tanqidiy munosabatda bo'lish, ularni chuqur rahil qila bilish, bir xil qo'lyozmalardagi ma'lumotlarni boshqa qo'lyozmalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan sinchiklab solishtirish, to'g'ri narsalarni noto'g'ri narsalardan farqlay bilish, ular orasidan muayyan tarixiy faktga oid bo'lgan eng muhim ma'lumotlarni saralab olib bilish, bir muallif ma'lumotlarini boshqa muallif ma'lumotlari bilan to'ldirish kabi mashg'ulotlarning uddasidan chiqish talab qilinardi.

Ma'lum bir muallif qo'lyozmasida keltirilgan ma'lumotlar boshqa mualliflar qo'lyozmasidagi ma'lumotlarga zid kelgan hollar ko'p uchraydi. Xush, bu

ma'lumotlarning qaysi biri aniqroq va to'g'riroq ekan? Shunisi xarakterliki, bundan yuz yillar muqaddam yozilgan qo'lyozmalarda hozir tushunish qiyin yoki butunlay tushunib bo'lmaydigan so'z va iboralar uchraydi. Vaxolanki, ularning ma'nosiga tushunish va ahamiyatini aniqlash lozim bo'ladi. Olimlar ayrim, hatto hajmi uncha katta bo'lmagan qo'lyozmalar ustida oylab, ba'zan yillab ishlashlarining boisi ham mana shunda. Bu o'tkir idrok va qo'lyozma tilini (masalan, arab, fors, tojik, eski o'zbek va boshqa tillarni) a'lo darajada bilishni talab qiluvchi sermashaqat katta mehnatdir.

Bartol'd tadqiqotchilarga xos barcha xislatlarga mukammal ega bo'lgan ajoyib olim edi. Shu tufayli u Turkistonning mo'g'ul bosqini davridagi murakkab va kam tekshirilgan tarixini shu qadar yaxshi va ilmiy jihatdan asosli qilib yoritib berishga erishdi.

Bartol'd «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» asarida sharqshunos akademik S. F. Oldenburg so'zlari bilan aytganda, ishda asoslilik va bir ishni oxirigacha yetkazishga qobillik kabi o'ziga xos xislatlari ochiq namoyon bo'lgan. «Bu asar - deydi Oldenburg,— hozirgacha O'rta Osiyo tarixi bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda».

Bartol'dning «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» mavzusidagi dissertatsiyasini yoqlash marosimi zo'r muvaffaqiyat bilan o'tdi.

Birinchi rasmiy opponent professor N. I. Veselovskiy «Turkiston tarixini o'rganayotgan har qanday tadqiqotchining Bartol'd kitobini qo'liga olmay iloji yo'q» deganida batamom haq edi. Fakultet kengashining Bartol'dga mashxur asari uchun Sharq tarixi doktori degan ilmiy daraja berish to'g'risidagi taklifini universitet kengashi ma'qullaydi. V. V. Bartol'dning «Turkiston» kitobi, — deyiladi kengash protokolida, — haqiqatan ham fanga qo'shilgan nihoyatda katta hissa bo'ldi, u avtorga yo'qsak sharaf keltiradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Bartol'dning dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan yoqlaganligi Turkistonda juda qizg'in va zo'r olqishlar bilan kutib olindi. Bu

vaqtda Bartol'd O'rta Osiyo tarixining bilimdon olimi hamda mahalliy o'lkashunoslarning ustozi va homiysi sifatida Turkistonda katta obro qozongan edi. Masalan, samarqandlik arxeolog va sharqshunos V. L. Vyatkin barcha o'lkashunoslar uchun V. V. Bartol'dning mazkur asari nihoyatda ahamiyatli ekanini alohida ta'kidlagan edi. Mahalliy o'lkashunoslar, — deydi Vyatkin, — V. V. Bartol'd kitobi nashr etilgandan so'ng Sharq qo'lyozma manbalarida bayon qilingan muhim ma'lumotlar bilan tanishishga muyassar bo'ldilar.

V. V. Bartol'dning shogirdi professor I. I. Umnyakovning aytishicha, olimning: «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» asarining o'ziyoq uning nomini faqat bizdagina emas, balki jahon miqyosida ham O'rta Osiyoning ilk O'rta asrlar tarixini a'lo biluvchi birinchi olim darajasiga ko'targan katta mehnatning boshlanishi bo'ldi, xolos».

Bartol'dning ilg'or qarashlari va kayfiyatlarini anglashda uning dissertatsiya yoqlash oldida so'zlagan nutqi diqqatga sazovordir. Olim Sharq tarixini o'rganishga to'g'ri yondashgan holda «bu tarix, — deydi u, — o'zining afsonaviy qiyofasini yo'qotib, xalqlarning haqiqiy hayotini aks ettiruvchi xarakter kasb etadi. Ko'rinib to'ribdiki, hamma joydagi kishilar bir xilda, Sharq madaniyati bilan G'arb madaniyati o'rtasidagi tafovut Sharq xalqlarining aqliy mehnati shart-sharoit taqozosi bilan boshqacha yunalishdan borganligi sababidan ekanligi tula anglashilarli narsa. Sharq odami bilan G'arb odami tabiatlari o'rtasida mavjud asosiy tafovutlar va yuqatib bo'lmas irqiy xususiyatlar to'g'risida (fakt va tahlillardan holi bo'lgan, soxta) taxminlarga tayanishning hech hojati yo'q. Sharq tarixini ilmiy tushuntirish shuning uchun zarurki, chunki u faqat YYevropa tarixi asosidagina ishlab chiqilgan qonunlarning bir yoqlama xarakter kasb etishi muqarrar bo'lib qoladi va tarix ilmining tub maqsadi — bo'tun bashariyat hayoti amal qiladigan qonunlarni aniqlash vazifasi ruyobga chiqmay qoladi»

Bartol'd o'z nutqini tamomlar ekan, «rus sharqshunoslarining uncha-muncha qilgan ishlari ... Sharq xalqlarining Rossiya bilan har tomonlama yaqinlashishlariga va

ulug' shoirimiz (A. S. Pushkin) orzu qilgan, hozircha juda uzoq bo'lgan kunning—Rossiyadagi barcha xalqlar, shu jumladan, «bugungi yovvoyi tungus va sahroyi qalmoq ham» birlashib, «o'zining mash'um zamonida erkinlik va ezgulikni kuylagani» sababli Pushkinga ta'zim qilishadigan kunning kelishi»ga ishonch bildiradi.

Bunday sharoitda Bartol'd qarashlari zo'r ahamiyatga molik bo'lib, fandagi reaksiонерlar, irqiy aqidalarni ilgari so'ruvchilar hamda Sharq xalqlari va ularning tarixiy o'tmishini kamsitish va nafrat nazari bilan qarovchi shaxslar sha'niga aytilgan o'ziga xos qoralovchi notiqdek jarangladi. Bartol'd o'z zamoniga nisbatan ilg'or bo'lgan ana shu qarashlariga keyinchalik ham sodiq qoldi va umrining oxiriga qadar undan mutlaqo toymadi.

Bartol'dning «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» asari maydonga kelganidan buyon yetmish yil o'tdi. Lekin shunga qaramay, olimlar bu kitobning favqulodda qimmatini, uning hozirgi kunimiz uchun ham azhamiyatga molik ekanini yakdillik bilan tan olishadi. «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» kitobi Bartol'dning haqli ravishda klassik asari hisoblanadi.

Bartol'd mazkur kitobida O'rta Osiyo tarixini o'rganishni birinchi bo'lib o'z zamonasidagi tarix fani darajasiga ko'targani uchungina va bu tadqiqot O'rta Osiyo tarixi bo'yicha o'lkan va ko'pchiligi ilmga birinchi bor olib kirilgan materiallarning sistemalashtirilgan dastlabki jiddiy ilmiy ma'lumoti bo'lgani uchungina bu asarga tan berish kamlik qiladi. Bu asar faktlarga, xususan, yangi yoki kam ma'lum bo'lgan faktlarga nihoyatda boyligi bilan mutaxassislarni, havaskor kitobxonlarni hayratga soldi, hozir ham hayratga solmoqda. U ana shu faktlarning chinakam xazinasidir. Asarda bayon bilan tekstdagi ensiklopedik ma'lumotlar o'rtasidagi umumiylik mohirona tarzda olib boriladi. Kitobxon undan tarixiy, tarixiy-geografik, tarixiy-topografik, arxeologik, xronologik va boshqa bir qancha masalalar bo'yicha o'ziga zarur bo'lgan u yoki bu ma'lumotlarni hozir hm topa oladi.

Bartol'd o'z asarida fan uchun muhm bo'lgan bir qancha masalalarni quyadi va kelgusida u masalalarni o'rganishga, ularni yanada tularoq yoritishga undaydi. Kitob xanuzgacha O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy o'tmishini o'rganuvchi har bir kishining ma'lum darajada kerakli qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Bartol'd asariga muntazam ravishda mo'rojaat qiluvchilar har gal uning mazmunidagi ilgari sezilmagan yangidan-yangi jihatlarni topadi.

Bartol'dning mazkur kitobini diqqat bilan o'qirkan, kishi unda ijtimoiy-iqtisodiy harakterdagi juda ko'p qimmatli ko'zatislar va xulosalar borligini ham bilib oladi. Masalan, O'rta Osiyoning arablar tomonidan zabt etilishi natijasida undagi ijtimoiy munosabatlar sistemasining o'zgarganligi to'g'risidagi va tohiriylar, sofforiylar, somoniylar davrida to'rli dehqon tabaqalarining (qadimda dehonchilik zodagonlari) davlat ishidagi amaldor zodagonlarga qarshi olib borgan ko'rashlari to'g'risidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir.

IX—X asrlarda shaharlardagi hayot markazlarining shahar ichidagi aslzodalar yashaydigan dahalardan savdo- hunarmandchilik qaynagan joylarga (robotlarga) kuchishi hamda dehqonlarning turkiy harbiy-ko'chmanchi zodagonlar tomonidan qisib quyilishi jarayonlari va boshqa shu kabi voqealar Bartol'd tomonidan juda aniq belgilandi. Bu jarayonlarga yana Chingizxon zamonidagi ko'chmanchi mo'g'ullarning jamoat to'zilishi to'g'risidagi, ularning harbiy tashkilotlari sistemasi va davlat siyosiy muassasalarining mohiyati to'g'risidagi usha zamon uchun yangi bo'lgan juda ko'p ma'lumotlarni ham qo'shish kerak.

To'g'ri, ijtimoiy-tarix muammolari Bartol'd tadqiqotida ko'zga tashlanadigan o'rinda to'rmaydi. Bu tadqiqot hammadan avval O'rta Osiyodagi o'rta asr davlatlarining XIII asrgacha bo'lgan davrdagi tarixiy-iqtisodiy geografiyasi va siyosiy tarixidan iboratdir. Biroq Bartol'd o'z kitobini XIX asr oxirida, o'ttiz yoshga to'lmagan chog'ida yozganligini esdan chiqarmaslik kerak. Shu bilan birga, bundan bir necha o'n yillar ilgari yozilgan asarga fan oldiga quyilayotgan hozirgi zamon talablari pozitsiyasidan to'rib baho berish ham to'g'ri bo'lmaydi.

Shunisi ibratliki, Bartol'dning bu asari shu kungacha uch marta ingliz tilida (1928, 1959 va 1967 yillarda), O'zbek tilida (1931), rus tilida (1968) nashr etildi.

«Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston» asaridan keyin olimning Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo tarixi va, avvalo, O'rta Osiyo tarixiga doir boshqa ajoyib asarlarining yaratilishiga yo'l ochiladi.

II Bob. V. V. Bartol'dning ilmiy faoliyatida O'rta Osiyo tarixiy manbaalarining o'rganilishi.

2.1. V. V. Bartol'd tomonidan O'zbekiston tarixiga oid manbalarning urganilishi

Bartol'd Sharq tarixi doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiya yoqlagandan so'ng ko'p o'tmay, 1901 yil 10 avgustda Peterburg universitetining o'zi uchun jonajon bo'lib dolgan Sharq tillari fakultetiga shtatdan tashkari professor, 1906 yil 21 yanvardan boshlab esa shtatli professor lavozimiga tayinlanadi. 1906 yildan 1918 yilga qadar fakultet sekretari vazifasini bajaradi.

Bu vaqtga kelib, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Bartol'dning juda boy, lekin juda kam o'rganilgan tarixiy o'tmishga ega bo'lgan bepoyon o'lka hisoblanmish O'rta Osiyo tarixi problemalariga qizikishi to'la shakllanadi. Bartol'd o'zini «asosan O'rta Osiyo tarixchisi» deb atay boshlaydi. «O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullanuvchi har bir kishi,—deydi u, — ma'lum darajada, filolog bo'lmog'i kerak».

Taniqli rus filologi, akademik N. I. Konradning so'zicha: «Haqiqiy filolog faqat lingvist (tilshunos)gina bo'lib qolishga haqqi yo'q. Til hodisalari zahirida u tilning o'zini, u orqali esa fikrlashni, aqil-idrokni... xalqning ijodiy dahosini ko'ra olishi lozim. Filolog yana tarixchi, lekin tarix orqali hayot, ko'rash va ijodiyotni butun yaxlitligi bilan ko'ra biladigan tarixchi bo'lishi kerak». Vasiliy Vladimirovich Bartol'd xuddi shunday olim edi.

1902 yilda Bartol'd O'rta Osiyo ikkinchi marta safar qiladi. Bu gal ham u O'rta Osiyoning tarixiy o'tmishini zo'r qiziqish bilan o'rganadi. Bu narsa Sharq qo'lyozmalari ustida ishlash uning eng jonajon ilmiy mashg'uloti, butun hayoti davomida asosiy ishi bo'lganidan yana bir marta dalolat beradi. Uning o'zi ham, O'rta Osiyoga qilingan safarlari orasida eng foydalisi 1902 yildagi safari bo'lganini, chunki bu vaqtda mahalliy mutaxassis xodimlar bilan aloqani yo'lga quyish va kengaytirishdan tashqari, asosan, qo'lyozma yodgorliklari bilan ko'proq tanishganini alohida ta'kidlaydi: hali hech kim tomonidan foydalanilmagan boy manbaalarga ega bo'lgan Sharq tarixini o'rganib, undagi qo'lyozmalarni o'qir ekansan, ko'pincha, o'zingni xuddi qadimiy shaharlar o'rnini kavlab, yangi dunyo ochayotgan ixtirochi singari tasavvur qilib, zavq-shavqatlarga to'lasan kishi, - deb yozadi Bartol'd,

Bartol'd O'rta Osiyoga kelishi bilan o'lkadagi xususiy hamda jamoatga qarashli qo'lyozma to'plamlarini ko'zdan kechirishga katta e'tibor beradi. Bunda o'zining maxsus mashg'uloti hisoblanmish O'rta Osiyo tarixiga oid asarlarga alohida e'tibor qildi.

Ashxobodda Bartol'd mahalliy muzeyda forsiy qo'lyozmalar (Firdavsiy, Amin Ahmad Roziy asarlari, «Iskandar Zulqarnayn tarixi» va boshqalar) bilan tanishdi.

Shuningdek, Toirov degan bir mansabdor tomonidan to'plangan qo'lyozmalarni («Imperator shoh Jahon tarixi», «Ali avlodlari tarixi», Sa'diy, Firdavsiy va boshqa shoirlarning asarlar to'plami, diniy va pand- nasihat mazmunidagi qo'lyozmalarni) ko'zdan kechirdi.

Bartol'd Toshkentga kelganida Turkiston xalq kutubxonasidagi «Temur tarixi» (Jahongirning hayotlik vaqtida G'iyosiddin Ali tomonidan yozilgan) va XVI asr o'rtalarida xivalik Utemish Hoji tomonidan yozilgan «Juchiylar tarixi» kitoblarini ko'zdan kechirdi va bu har ikki qo'lyozmaning to'la tavsifini yozdi. Bartol'd general-mayor Jo'rabek tomonidan yig'ilgan qulyozmalar to'plamidan Rashididdinning mo'g'ullar tarixiga oid va Maxmud bin Valining tarixiy asarlarini topdi.

O'tkir zehnli Bartol'd qadimgi qulyozmalar orasida ba'zi hujjatlarning (ko'proq vaqf hujjatlari singari) qalbaki ekanini payqagan va aniqlagan hollar ko'p bo'lgan. Masalan, Bartol'd 1401 yilda guyo Amir Temur tomonidan Sig'noq saidlariga berilgan «Temur yorliqlari» shunday qalbaki hujjat ekanligining va hatto uning uslubiga qarab hujjatning yozilgan aniq vaqtini (XVI asrning ikkinchi yarmi) ham aniqlay oldi.

Bartol'd Turkiston arxeologiya havaskorlari tugragining faxriy tashkilotchi-a'zosi sifatida uning 1902 yil 16 avgustda bo'lib o'tgan majlisida ishtirok etdi va so'zga chiqib, o'zining O'rta Osiyo bo'ylab qilayotgan safari natijalari to'g'risida tugarak a'zolariga axborot berdi. Bartol'dning bu safari sharqshunoslik sohasida uning mahalliy xodimlar bilan bo'lgan aloqasini yanada mustahkamladi.

Shuni aytish kerakki, V. V. Bartol'd o'zining asosiy ilmiy ishidan tashqari o'zoq yillar mobaynida yana mahalliy muassasalar, tashkilotlari va ayrim shaxslarning markaziy va mahalliy nashrlarda chop etilgan tarixiy-sharqshunoslik asarlarini retsenziya qilish bilan ham muntazam shug'ullandi. Olim faoliyatining bu tomoni ham alohida diqqatga sazovor bo'lib, sharqshunoslik tarixida eng ajoyib hodisa hisoblanadi. Bartol'd o'zining kichik kasbdoshlari — Sharqshunoslik sohasidagi mahalliy mutaxassis va havaskorlarning asarlari to'g'risida o'z vaqtida

muntazam ravishda mulohazalarini bayon qilib to'rardi. Bunday chog'larda u talabchan, ayni vaqtda, muruvvatli retsenziya va obzorlari bilan mahalliy mualliflarning kuchli va zaif tomonlarini belgilab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatar, muhim manba hamda adabiyotlarni berar va shu tarzda ularga katta yordam qilardi.

Bundan tashqari, Bartol'd avtorlardan biri sifatida «Turkestanskije vedomosti», «Okraina» («Chekka o'lka» ma'nosida), «Russkiy Turkestan», «Samarkand» va «Turkiston» singari mahalliy gazetalarga maqola yozib turishni o'zining vazifasi deb bilardi. Bartol'd Peterburgdalik chog'ida ham «Turkistonliklar» bilan qizg'in va mastakam aloqasini tark etmadi. O'zbekistan SSRda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limining sobiq sekretari N. P. Arxangelskiy shunday eslaydi: «Vasiliy Vladimirovichning usha vaqtlarda Peterburgda ta'lim olib to'rgan Turkistonlik talabalarga ko'rsatgan g'amxo'rligini alohida ta'kidlash lozim. Inqilobdan ilgari Peterburgda «keksa Turkistonliklar» deb nomlanuvchi va ilgari o'zoq vaqt Turkiston o'lkasida istiqomat qilgan va ishlagan bir qancha shaxslar yashardi. Ularning ko'pi Turkiston talabalari hamshaharlik uyushmasiga qullaridan kelgancha yordam berishni o'z burchlari deb bilishardi. Xatto Peterburgda o'qiyotgan Turkistonlik talabalarga yordam jamiyati ham tashkil etilgandi. Bu jamiyatning aktiv a'zolaridan biri V. V. Bartol'd edi.

Turkiston talabalari hamshaharlik uyushmasi Turkistonlik talabalarining bilimi va tayyorgarligini oshirishga yordam berish hamda universitetni tugallaganlaridan keyin ularni Turkistonga amaliy ishga qaytishga rag'batlantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Bartol'd mazkur uyushmaning majlislariga tez-tez qatnashib to'rar va majlislarda nutq so'zlar va uyushma kutubxonasiga o'zining bosilib chiqqan bir qancha asarlarini sovg'a qiladi. Bu asarlar keyinchalik Toshkentga keltirilib, mahalliy kutubxonalar fondiga beriladi. Bartol'd, shuningdek, Peterburgda chiqadigan «Turkiston talabalari» jurnaliga ham rahbarlik qiladi va unga maqolalar yozib turadi.

1902 yili Bartol'dning O'rta Osiyo bo'yicha «Orol dengizi va Amudaryo etaklari to'g'risida qadim zamonlardan to XVII asrgacha bo'lgan ma'lumotlar» nomli yana bir katta asarining mahalliy nashri dunyoga keldi. Bu kitob Bartol'dning tarixiy-geografik tadqiqotlari bo'yicha birinchi yirik asari edi. Bu tadqiqotlar olimga O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasini yaratuvchisi degan sharaflı nom keltirdi. Bartol'd o'z tadqiqotlarida ana shu tarixiy-geografik ma'lumotlardan bizning zamonamizdagi xalq xo'jaligi problemalarini, ayniqsa, Turkistonni sun'iy sug'orish muammolarini hal etishda ham kerakli va muhim yordamchi material sifatida foydalanishga intiladi. Turkistonning o'ziga xos tabiiy sharoitida sun'iy sug'orish muammosi xususan juda dolzarb masala edi.

Bartol'dning o'zi bir necha bor ta'kidlab o'tganidek, yozma manbalar ustida ishlashga bo'lgan qiziqishi uni O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotini jonlantirish uchun o'lkaning tabiiy resurslarini ishga solishda ozmi-ko'pmi foyda keltirish istagidan aslo qaytarolmadi.

Bartol'dning yuqorida aytilgan asariga kelganda shuni aytish kerakki, u tarixchilar, geograflar, geologlar va boshqa soha olimlarining diqqatini ilgari o'ziga jalb qilib kelayotgan Amudaryo problemasiga bevosita aloqador edi. O'rta Osiyoning eng yirik suv yo'li bo'lmish Amudaryo eng qadim zamonlarda Kaspiy degiziga quyilganmidi? O'zboy Amudaryoning qurib qolgan o'zani bo'lganmi yoki u qadim zamonlarda dengiz bug'ozi bo'lgan joyning o'zimi?

Tabiiy-ilmiy bilimlarning vakillarigina emas, arxeologlar, tarixchilar, sharqshunoslar ham bu muammolarni hal etishga rosa o'rinib ko'rganlar. Biroq revolyutsiyadan ilgari o'tgan tarixchi-sharqshunoslardan birontasi ham bu ishga V. V. Bartol'd singari o'lkan hissa qo'sha olmadilar.

Bartol'dning «Orol dengizi va Amudaryo etaklari to'g'risida ma'lumotlar» asari Orol dengizi va Amudaryo etaklari (Xorazm vohasi va uning atrofidagi rayonlar) to'g'risidagi musulmon avtorlari keltirgan ma'lumotlarning, jumladan, gidrogeografiya, irrigatsiya va boshqa masalalarga doir ma'lumotlarning juda keng

bayoni va tanqidiy analizi edi. Bu yerda ham Bartol'd tarixiy geografiya sohasida o'z prinsiplariga sodiq qoladi. Bartol'dning tarixchi sifatidagi birinchi navbatdagi vazifasi, uning o'z so'zicha, «Amudaryoning qayoqqa quyilishi to'g'risidagi ma'lumotlarnigina aniqlashdan emas, balki mahalliy sharoitning xarakterini aniq bilib olish uchun Amudaryo Kaspiy dengiziga quyilgan qadim zamonlarda mavjud bo'lgan joylar va sodir bo'lgan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash»dan iborat edi. Bartol'dning fikricha, «O'zi sug'orib o'tgan mamlakatlarning butun hayotini belgilovchi ana shu daryoning qadim zamonlarda qaysi tomonga qarab oqanligi masalasi yer sirtining tarixini yoki O'rta Osiyo aholisi tarixini aniqlash bilan sho'g'ullanuvchi barcha kishilar uchun muhim ahamiyatga ega» bo'lgan muammo edi.

Bartol'd o'z vazifasini favqulodda muvaffaqiyat bilan ado etdi. Shuningdek, «Amu qayoqqa quyilar edi» masalasini tushunib olish borasida ham Bartol'd asari katta ahamiyatga molik bo'ldi. Akademik L.S.Bergning ishonchli so'zlariga qaraganda, «Bartol'd qisman yangi topilgan mu'tabar tarixiy shahodatlar orqali, qisman ilgari ma'lum bo'lgan qo'lyozma manbalarni- tanqidiy ishlab chiqish yo'li bilan Amudaryoning bir qismi suvi XIII—XVI asrlar mobaynida, haqiqatan ham O'zboy orqali oqqanligini aniqlashga muvassar bo'ldi».

Bartol'dning o'zi Amudaryoning XIII asrdan XVI asrgacha Kaspiy dengiziga quyilganiga shubha qilmas va tarixchining bu xulosasi geograflar, geologlar va paleontologlar orasida qizg'in qullab-quvvatlanganidan juda mamnun edi.

XIX asr boshlarida Bartol'd O'rta va Sharqiy Osiyo bo'yicha sobiq rus komiteti ishlarida ishtirok etadi va bu komitet orqali Turkistonda tarixiy-sharqshunoslik ishlarining jonlanishi va rivojlanishiga samarali hissa qo'shadi.

Mazkur komitet 1899 yilda Rim shahrida bo'lib o'tgan jahon sharqshunoslari XII kongressining qarori bilan tashkil topgandi. Qarorda, jumladan, bunday deyilgan: O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganish uchun xalqaro uyushma tuzish va bu tashkilotning markaziy komiteti qilib Peterburgdagi rus komiteti belgilanishi maqsadga muvofiq.

1902 yilda Gamburg shahrida ochilgan Sharqshunoslar XIII jahon kongressida uyushma ustavi qabul qilindi. Bu kongressda rus Sharqshunosligi faoliyati yo'qsak baholandi. O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatlardan o'rganish bo'yicha rus komitetining faoliyati shu tarifa boshlanib, to 1919 yilgacha davom etdi.

Bartol'd bu komitetning aktiv a'zolaridan va uning sekretarlaridan biri edi. U O'rta Osiyoda arxeologik qidirish ishlarini amalga oshirish uchun komitet- dan mablar ajratish tashabbuskori bo'lgan edi. Jumladan, uning taklifi bilan Afrosiyobda qazish ishlari olib borishga mablar ajratiladi.

1904 yilda Bartol'dning O'rta Osiyoga uchinchi sayohati boshlanadi. Bu gal olim qadimgi shahar — Afrosiyobda qazishma ishlari olib borishni o'z oldiga maqsad qilib quyadi. Bartol'd Samarqandga jo'nash oldidan 16 martda u shahar to'g'risida bosma hamda qo'lyozma manbalarda bayon etilgan jami ma'lumotlarni batafsil o'rganish niyatida ekanligi to'g'risida yozgan edi.

Bartol'd qazishma jarayonida Afrosiyobni sinchiklab o'rganishga kirishib, uning topografik holatiga alohida e'tibor berdi. U, jumladan, Shahristonning (atrofi devor bilan o'rab olingan shahar markaziy qismi) arab geograflari qulyozma asarlarida ta'rif qilingan to'rt darvozasi o'rnini aniqlash hamda bu qadimiy shaharning suv bilan qay yusinda ta'minlanganligini o'rganish uchun tegishli ma'lumotlar to'plashga o'rindi. Sinchiklab tekshirishlar natijasida shahar janub tomondan va qulyozma manbalarda keltirilganidek, faqat vodoprovod orqali suv bilan ta'min etilib kelgani aniqlandi. Qadimiy Samarqandning suv ta'minoti to'g'risida Bartol'd maxsus maqola yozadi.

Bartol'dning Afrosiyobda olib borgan arxeologik qazishmalarida nomi yuqorida tilga olib o'tilgan samarqandlik arxeolog o'lkashunos V. I.Vyatkin ham qatnashdi. Qazishma shaharning shimol tomonidagi bir necha joylarida olib borildi. Qazishma oxirida pishiq g'ishtdan ishlangan qandaydir katta bir binoning qoldiqlari topildi. Biroq u binoning qanday maqsad uchun gurilganligini aniqlab bulmadi.

Gishtin devor qoldiqlarining ba'zi joylarida «ishid», «musayyob», «ishtixon» deb yo'rutiluvchi kufaz harflarida tushirilgan yozuvlar bor. Bartol'd olib borgan qazishmalar Afrosiyobning X asrda o'tgan arab geograflari aytib o'tgan qadimiy Samarqand Shazfistoni joylashgan erga to'g'ri kelishini tasdiqladi.

Bartol'd o'zining arxeologik qazishma natijalari to'g'risida gapirib, bu shunchaki bir tajriba, ilk qadam ekanligini va qariyb 1500 yilcha davr so'rgan, katta joyni egallagan Afrosiyobdek qadimiy shaharda madaniy qatlamni bo'tunicha tekshirib bulgunga qadar har yili o'zluksiz olib boriladigan qazishmalargina haqiqiy va chinakam tadqiqot bo'la olishini ta'kidlaydi..

Bartol'd juda katta mablag' talab etadigan bunday qazishmalar Afrosiyobda yaqin orada ruyobga chiqmasligini aytadi.

Shu bilan birga Bartol'dning Afrosiyobda olib borgan qazishmalari unda shunday o'zil-kesil ishonch hosil qildi, bunday ishlar bilan haqiqiy arxeologlarga shug'ullanishi lozim. Bartol'd bu xususda o'z-o'zini tanqid qiladi va keyinchalik arxeologik qazishma ishlariga rahbar bo'lishni o'z zimmasiga olmaydi.

Haqiqatan ham, arxeologik va muzey mashg'ulotlari Bartol'd faoliyatida unchalik katta o'rin to'tmaganini ko'ramiz. Biroq Bartol'dning bu ishlarga nihoyatda qiziqish bilan qarashi, O'rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlarning va muzey ishlarining rivojlanishiga yordam berishga intilishi umrining oxirigacha sunmadi.

Shu bilan birga Bartol'd mutaxassis-arxeolog, shuningdek, numizmatika, epigrafik degan nomga da'vo qilmagan xolda, ilgorigidek, bu sohalarda ham vaqti-vaqti bilan qimmatli maqolalar yozib, fanda sezilarli iz qoldirdi. Bu narsa jumladan, Samarqand arxeologiyasiga ham oid edi. Bartol'd Samarqandning O'rta Osiyo va ma'lum darajada Sharqdagi boshqa bir qancha mamlakat xalqlarining tarixiy taqdirida muhim rol uynaganini bir necha bor ta'kidlagan edi. Bartol'd usha vaqtdagi O'rta Osiyo bo'yicha arxeologik materialning qashshoqligi o'lka qadimiy tarixining qashshoqligi natijasi emas, balki bu tarixiy o'rganishning zaifligi natijasi ekanligini ilmiy bashorat qilib aytgan edi. 1896 yildayoq Bartol'd topilgan eng

qadimiy tangachalarga va sopol haykalchalarga asoslanib Movarounnahrning Grek-Baktriya podsholigiga kirganligi to'g'risida gapirar ekan, kelgusida bulardan ham qadimiyroq buyumlar topilishiga umid bildiradi. Darhaqiqat, arxeologlarning keng kulamda va rjali ravishda olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida O'rta Osiyo hududida qadimgi tosh davriga (paleolit) oid talay buyum va yodgorliklar topildi. Shuningdek, Greko-Baktriya podsholidan ilgarigi zamonlarga oid bo'lgan yodgorliklar ham topildi.

Bartol'dning arxeologik va numizmatikaga doir maxsus maqolalari qatorida tarixiy, tarixiy-filologik hamda manbashunoslikka oid asarlari ham O'rta Osiyo arxeologiyasi, numizmatikasi va etnografiyasi uchun juda katta ahamiyatga molikdir. Shuning uchun ham o'z faoliyatini O'rta Osiyoning o'rta asrlar davriga oid qadimgi yodgorliklari, buyumlari va tanga-chaqalarini o'rganishga bag'ishlagan har qanday arxeologik yoki numizmat Bartol'dning «Mo'g'ullar bosqini davrida Turkiston», «Orol dengizi to'g'risida ma'lumotlar»

«Turkistonning sug'orilish tarixiga doir», «Marv, tarixiga doir» kabi asarlariga murojaat qilmasdan ishi bitmasligi tasodifiy emas, albatta. Bu asarlarda arxeolog va numizmatlarning izlanishlarini yengillatuvchi va moddiy madaniyat yodgorliklaridan yana ham chuqur va tula foydalanishlariga yordam beruvchi juda ko'p umum tarixiy, tarixiy-topografik, fiolologik va boshqa ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Bartol'dning «Grek-Baktriya davlati va uning shimoli-sharq tomon yoyilishi», «Temurning dafn etilishi to'g'risida», «Turklar va mo'g'ullarning dafn marosimlari masalasiga doir» va shunga o'xshash maqolalari to'g'risida ham ayni shu fikrni aytish mumkin.

Bartol'dning arxeologik xarakterdagi bir qancha asarlarga, shu jumladan, chet el arxeologlarining O'rta Osiyoga doir asarlariga bergan retsenziyalarini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bartol'd bu retsenziyalarida doim vatan tadqiqotchilarining birinchililik huquqlarini himoya qilishga, ular asarlarini jahon fani mulkiga aylantirishga intilardi. U O'rta Osiyoda ishlovchi chet ellik mutaxassislarning rus

ilmiy adabiyotini inkor etishlari, uni bilmasliklari, O'rta Osiyoning tarixiy o'tmishiga doir materiallar bilan faqat og'zaki tanishuvlari uchun ularni qattiq qoralardi.

Bartol'dning professor R.Pampelli boshchiligidagi Amerika tarixiy-arxeologik va geologik ilmiy ekspeditsiyasining (1903 y.) O'rta Osiyo to'g'risida e'lon qilgan materiallariga bergan bahosi boyagi xildagi retsenziyalarning tipik namunasi edi. Bartol'd mazkur ekspeditsiya ishidagi ba'zi ijobiy tomonlarni ta'kidlash bilan birga, ekspeditsiya qatnashchilari orasida, ularning o'z hisobotlariga qaraganda, O'rta Osiyo tarixini biluvchi bironta kishi bo'lmaganligi, umuman, bironta ham sharqshunos yo'qligi, professor Pampellining o'zi yozgan hisobotida O'rta Osiyoning o'tmishini ham, hozirgi ahvolini ham butunlay bilmaslik ko'rinib to'rganligini ko'rsatib o'tadi. Bartol'd o'z retsenziyasida mazkur ekspeditsiya a'zolarining, aslida, O'rta Osiyo tarixidan bexabar ekanliklari ochiq-oydin ko'rinib to'rganligini ustalik bilan ochib beradi. ekspeditsiyaning O'rta Osiyoda arxeologik qazishmalarni yana davom ettirish niyati borligi sababli, Bartol'd «mamlakat tarixini bilmay to'rib, undagi tarixiy shaharlar o'rnida olib boriladigan qazishmalar ko'tilgan natijalarni bermasligi» to'g'risida ularni ogohlantirdi.

Afrosiyobda, umuman, Samarqand atrofida, olib boriladigan keyingi qazishmalarga kelganda, bu ishlarni Bartol'd V. P. Vyatkin ixtiyoriga topshiradi. Lekin o'zi ham ma'naviy, ham rus komiteti orqali moddiy yordam ko'rsatish yo'li bilan Vyatkin ishlarini muntazam va diqqat bilan ko'zatib boradi. 1908—1909 yillardagi qazishmalar vaqtida asrimizning eng zur arxeologik kashfiyotlaridan biri bo'lmish Ulug'bek rasadxonasi xarobalari topiladi.

1906 yilda va undan keyingi o'n yillar ichida Bartol'dning O'rta Osiyo tarixining ayrim masalalari bo'yicha bir qancha muhim maqolalari bosilib chiqadi. Masalan, 1909 yilda bosilib chiqqan «XVII asr O'zbekxonlari saroyidagi tantana marosimi» degan maqolasida O'rta Osiyodagi keyingi feodal davlatlarining ma'muriy tuzilishiga doir qimmatli ma'lumotlar beriladi. Maqolada, shuningdek, Bartol'dni doimo qiziqtirib kelgan mavzu, chunonchi, ko'chmanchi fotihlarning o'zlari bosib

olgan madaniy viloyatlar aholisi ta'siriga sekin-asta buysunib borishlari, urug'larga bo'linish sekin-asta barham topib, urug'chilik tuzumining o'troq jamoachilik hayoti bilan almashina borishi mavzusi ko'tarib chiqildi.

Bartol'dning O'rta Osiyo tarixiga doir maqolalari orasida, xususan, «1365 yilgi Samarqand xalq harakati» (1907) nomli maqolasi alohida diqqatga sazovordir. Bu maqola Bartol'dning o'rta asrlarda Sharqda ruy bergan ijtimoiy (xalq) harakatlari tarixiga nixoyatda qiziqish bilan qaraganidan dalolat beradi. Avtor o'z maqolasida bu harakatlarning tarixdagi roli va o'rni to'g'risida to'g'ri fikrlar bayon qiladi. Jumladan, Bartol'd 1365 yilgi Samarqand voqealarini musulmon Sharqida ham odatda taxmin qilganlaridan krra ko'proq sodir bo'lib turgan ijtimoiy harakatlar jumlasiga kiritadi. Shu bilan birga Bartol'd, maqolada, garchi vaqtincha bo'lsa ham, yakka hukmronlikni batamom bartaraf qilgan va ijtimoiy o'z-o'zini anglash bilan, shahar hayotining rivojlanishi bilan, savdo-sanoatchilar sinfining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni ham shu jumlagi kiritadi. 1365 yil voqealari mo'g'ullarning bosqinchilik siyosatlariga qarshi, ularga qushilgan mahalliy turalarga qarshi, ular o'rnatgan tartibotga qarshi bo'lgan va dehqonlar, hunarmandlar, qullar tomonidan qizg'in qullab-quvvatlangan sarbadorlar qo'zg'oloni tarixining yorqin sahifalaridan biri edi.

Bartol'd 1365 yilgi voqealar tafsilotini bayon qiluvchi bir qancha yozma manbalarning ma'lumotlaridan foydalanib (shu vaqtgacha bu ma'lumotlar yevropa faniga Juvayniy asarlaridan olingan parchalardan ma'lum edi) birinchi bor Samarqanddagi sarbadorlar qo'zg'olonining paydo bo'lishi va borishining keng manzarasini gavdalantirdi. Bunda u mazkur qo'zg'olonning hech qanday diniy sabablarsiz, mahalliy noib va uning qarindoshlari zulmi natijasida yuz berganligini ta'kidlaydi.

Bartol'dning sarbadorlar qo'zg'oloni to'g'risidagi maqolasi birinchi rus revolyutsiyasi boshlangan yillarda bosilib chiqdi. Maqolada ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan bir qator iboralarning («hunarmandlar sinfidan chiqan va aslzodalar quvg'iniga duchor bo'lgan kishi», «ishchilar sinfining vakillaridan biri», «studentlar

va ishchilar tomonidan hokimiyatni qulga olish» singari) ishlatilishi, ehtimol, ma'lum darajada xuddi ana shu sharoit bilan bog'liq bo'lgandir. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, «sinfiy ko'rash» kabi iboralar, hatto Bartol'dning dastlabki (1899 yillardagi) asarlarida ham uchraydi. Holbuki, o'sha vaqtdagi ko'pchilik sharqshunos olimlar o'tmishdagi xash ozodlik harakatlarini o'rganishdan o'zlarini chetga olishni afzal ko'rdilar, ular inqilobdan qo'rqib, undan xazar qilishar, «sinfiy ko'rash», «xalq qo'zg'olonlari» va shu kabi iboralarni tilga olmaslikka tirishar edilar.

1910 yilda Bartol'dning «Bir Xiva tarixchisining rivoyatiga ko'ra 1873 yilgi Xiva yurishi oldidan sodir bo'lgan voqealar» nomli maqolasi bosilib chiqadi (bu yerda Ogahiy nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammad Rizo Murod va uning «Shohida iqbol», ya'ni «Baxt shohida» asari ko'zda tutiladi). Bartol'd bu maqolasida XVIII—XIX asrlardagi O'rta Osiyo xonliklari tarixini o'rganishning ahamiyatiga yetarli baho bermaslik va tadqiqotchilarning ana shu davr tarixiga e'tiborsizlik bilan qarashlari yo'l quyib bo'lmaydigan hol ekanligini alohida ta'kidlaydi. Chunki o'sha vaqt tadqiqotchilari, Sharq xalqlarining yangi tarixida faqat muttasil turg'unlik va inqiroz manzaralarinigina ko'rar edilar. Aslida gap O'rta Osiyoning yangi tarixi bo'yicha manbalarning yo'qligida emas, balki sharqshunoslarning shu manbalarga nisbatan e'tiborsiz va beparvo bo'lganlarida edi.

Shu narsa harakterliki, Bartol'd ko'tarib chiqqan XVIII va XIX asrning birinchi yarmi O'rta Osiyo xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlardan qay darajada inqirozga yuz tutgani to'g'risidagi masala hozirgi kunda olimlarning diqqatini o'ziga tortmoqda. Ayrim sobiq sovet olimlari, mazkur inqiroz darajasini oshirib ko'rsatish to'g'ri emas va ana shu 150 yillik davr o'lka hayotlarining barcha sohalarida faqat doimiy turg'unlik bilangina o'tmadi, degan xulosaga kelmoqdalar. Ularning fikricha, XV asrda O'rta Osiyo xonliklarida boshlangan iqtisodiy krizis XVII—XVIII asrlarga kelib nihoyasiga etdi, shundan so'ng iqtisodiy va madaniy sohalarda ma'lum darajada jonlanish paydo bo'lib, feodallar o'rtasida Turkiston yerlarini bo'lish birmuncha susaydi.

1911 yildan boshlab xorijiy mamlakatlarda (Leyptsigda) bosilib chiqarilayotgan va islom tarixi bo'yicha eng mutabar ilmiy nashrlardan biri hisoblangan «Islom ensiklopediyasi» bilan V. V. Bartol'dning uzoq yillik aktiv hamkorligi boshlanadi. Bartol'dning aytishicha, «Islom ensiklopediyasi»- redaksiyasi unga hamkorlik qilish to'g'risida iltimos bilan murojaat qilganida bu masalalar bo'yicha G'arbda mutaxassislar yo'qligini va shunga ko'ra, Rossiya olimlarining ishtirokisiz ensiklopediyaning bu bo'limlarini ishlab chiqish mumkin emasligini bayon etgan edi. Ensiklopediyada qarib 25 yil davomida Bartol'dning turkiy xalqlar tarixi va shuningdek, O'rta Osiyoning ayrim shaharlari, Qrim, Kavkaz, Povolj'e va boshqa joylar tarixi bo'yicha juda ko'p maqolalari va ma'lumotlari bosildi. Bu maqolalarning jami 246 ga yetib, ko'pchiligi O'rta Osiyoga doir edi.

2.2. V. V. Bartol'd asarlarida Turkistonning sug'orish tizimi tarixiga oid manbalarning o'rganilishi.

1914 yilda V. V. Bartol'dning O'rta Osiyo tarixi va tarixiy-geografiyasiga bag'ishlangan eng muhim asarlaridan biri sanalgan «Turkistonning sug'orilishi tarixiga doir» degan asari bosilib chiqdi. Aslida tarixiy-geografik xarakterga ega bo'lgan bu asarda keltirgan ma'lumotlarini O'rta Osiyoning umumiy tarixiga taalluqli bo'lgan boshqa juda ko'p masalalar bilan yana ham ko'proq bog'lab bayon qiladi.

Bu kitob Turkistonning o'sha vaqtdagi dehqonchilik departamenti boshlig'i V.M. Masalskiyning iltimosiga asosan dunyoga kelgan edi. Turkiston bilan yaxshi tanish bo'lgan Masalskiy Bartol'dga murojaat qilib, o'tgan asrlarda o'lkada sug'orish ishlari qanday bo'lgani to'g'risida ma'lumotlar to'plami tuzib chiqishni iltimos qilgan edi. Bartol'dning o'z so'zlaridan ma'lum bo'lishicha, u bunday ishning sof ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta foydasi borligini e'tiborga olib, bu taklifni darhol qabul qiladi. Kitob bosilib chiqqach, Bartol'dning yozishicha, u «Dehqonchilik bosh boshqarmasiga shunday foyda keltirdiki, endi bu mahkama uchun arxeologiya

bilan sug'orish ishlari o'rtasida aloqa borligi tushunarli bo'lib qoldi». Xiva xonligi arxeolog-olim yuborishni iltimos qilib qidirish ishlari boshlig'iga murojaat qilganligi buning yaqqol dalili bo'la oladi.

Bartol'd o'z kitobida Turkiston o'lkasida o'sha vaqtlarda mavjud bo'lgan sug'orish sistemalarining qisqacha bayonini berishni maqsad qilib quyadi. Ma'lumki, bu yerda ko'p asrlardan beri sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mavjud edi. Bu hol, turgan gap, sharqshunoslar va arxeologlar kabi amaliy ish bilan shug'ullanuvchi kishilar o'rtasida ham qiziqish uyg'otmay qolmas edi.

O'lkaning o'tmishini o'rganish bilan uning kelajagi uchun qilinadigan ishlar o'rtasidagi bog'lanish boshqa sohalarga qaraganda, ehtimol, shu sug'orish sohasida jonliroq sezilgan bo'lishi mumkin.

Bartol'd o'zining kitobiga qadimgi zamonlardan (zardushtizmning muqaddas kitobi — Avesto) tortib, o'rta asrning so'nggi va yangi davrlargacha mavjud bo'lgan juda ko'p yozma manbalarni asos qilib oladi. Ana shu manbalar Bartol'dga sun'iy sug'orish tarixini yaratishnigina emas, balki o'lkaning umum tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan butun O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi tarixini ma'lum darajada ishlab chiqish imkonini ham berdi.

Bartol'd O'rta Osiyodagi qadimda sug'orilgan yerlar to'g'risidagi arxeologik yozuv va boshqa ma'lumotlardan bizning kunlarimizdagi sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish sohasida ham muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkinligiga shubha qilmagan edi. Zero hozirdagi chul, yarim chul va boshqa qarib odam yashamaydigan yerlarning shahar va qishloqlarga yaqin joylarida qadimiy sug'orish kanallari, inshootlarning xarobalari va izlari saqlanib qolgan. Olimlar hozirgi paytdagi yo'qsak texnika vositalaridan foydalangan holda, ana shu qadimiy inshootlar izidan borib, bir zamonlar yashnagan o'sha joylarga yana qaytadan hayot keltirishlari mumkin.

Bartol'dning ana shu nuqtai nazari sovet olimlari faoliyatida o'z ifodasini topdi. Jumladan, Ya.F.Rulomov, S. P. Tolstov va boshqa arxeologlarning yangi

tadqiqotlari asosida O'rta Osiyodagi hozirgi suvsiz yotgan katta maydonlardagi yerlarni (masalan, Amu va Sir- daryoning quyi oqimidagi yerlar) o'zlashtirib, qishloq xo'jaligi tizimiga kiritish mumkinligi aniqlagandi. Vaholonki, qadim zamonlarda sun'iy sug'orish sistemalarini barpo qilish yo'li bilan bu joylardan muvaffaqiyat bilan foydalanib kelingan, keyinchalik esa davrlar o'tishi bilan yana yaroqsiz holga tushib qolgan.

Bartol'dning O'rta Osiyo tarixiga qarashlari progressiv xarakterga ega ekanligi to'g'risida gap yurtar ekanmiz, uning P.P.Ostroumovning «Sartlar» (1896 y.) kitobiga yozgan retsenziyasidan olingan ayrim parchalar bilan kitobxonni tanishtirsak o'rinli bo'lur edi. O'sha vaqtda qo'lyozma holida bosilmay qolib ketgan mazkur retsenziyada Bartol'd «Xalq xarakteri»ning shakllanishi masalasiga tuxtaladi. Bunda u O'rta Osiyoning tub aholisi turmushini o'rganishda har qanday soxta ideallashtirishga va ayni vaqtda, har qanday irqiy, milliy va diniy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik zarurligi to'g'risida yozadi. Shuni unutmaslik zarurki,— deb o'qtiradi Bartol'd,— xalq xaraktera iqlim va turmush sharoitlari ta'sirida shakllanadi, lekin shunisi borki, turmush sharoitlari aholining turli sinflari uchun hech vaqt bir xil bo'lmaydi; shunga ko'ra ayrim vakillarini ko'zatish asosida butun bir xalqning xarakterini bilib olish — ko'pchilik sayyohlar va yuzaki ko'zatuvchilar uylagancha osoy bo'lmay, nihoyatda murakkab vazifadir.

Toshkentda xizmat qilgan rus amaldorlaridan biri (mustamlaka ma'muriyatining maorif maxkamasida xizmat qilgan shaxs) o'lkaning tub aholisini (o'zbek, tojik va boshqa xalqlarni) o'qish kitobi sahifalarida nafrat bilan «dangasalar» deb ataganida Bartol'd g'azablanib, unga qat'iy norozilik bildirgan edi. U darslik kitoblardan har qanday shovinizmni, islomga qarshi har qanday xurujlarni chiqarib tashlashni qat'iy talab qiladi.

Bartol'dning O'rta Osiyo tarixini o'rganishga zur moyillik ko'rsatgani va bu sohada talay tadqiqotlar qilgani to'g'risida gapirilgan chog'da, olimning «katta geografik va xronologik kulamdagi va keng territoriyadagi butun musulmon olamiga»

(akademik I. Yu. Krachkovskiy) chuqur va muttasil e'tibor bilan qarab kelganiga yetarli baho bermaslik noto'g'ri bo'lur edi.

Aksincha, Bartol'dning O'rta Osiyo tarixchisi sifatida O'rta Osiyoga chegaradosh yoki undan o'zoqda joylashgan, shuningdek, O'rta Osiyo bilan siyosiy hamda iqtisodiy aloqada bo'lgan mamlakatlar tarixiga qiziqishi tabiiy hol edi. U mamlakatlarning ko'pchiligi O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, Bartol'd islom va arab xalifaligi tarixini hamda Kavkaz Sharqiy YEvropa, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqiy territoriyalariga doir bir qator tarixiy-geografik va tarixiy filologik xarakterdagi masalalarni chetlab o'tolmadi.

Olim faoliyatidagi bunchalik keng kulamdagi qiziquvchanlik, uylab ko'rilsa, kuch va g'ayratning «sochilib» ketishi xavfini, olimning asosiy sohasidan tashqarida ba'zi masalalar ustida olib boradigan tadqiqotlarining yuzaki va ma'lum darajada ishonchsiz chiqib qolishi xavfini paydo qilishi mumkin edi.

Biroq Bartol'd namunasida bu hol yuz bermadi. Uning keng doiradagi ilmiy qiziqishlari chuqur va asosli tarzda ilmiy tayyorgarligi bilan, har qanday masalani o'rganish ustida tadqiqot olib borganida ishga nisbatan qattiq sinchkovlik va yo'qsak talabchanlik munosabatini saqlab qola bilishdek o'ziga xos xususiyati bilan hayron qolarli yusinda birga qo'shilgan edi.

Shunisi diqqatga sazovorki, islom tarixi bo'yicha Bartol'd ilgari so'rgan ayrim fikrlar o'z ruhi va mazmuniga ko'ra marksizmga yaqin edi. Masalan, u 1890 va 1900 yillardagi ko'pgina taniqli xorijiy mamlakatlar sharqshunoslari faoliyatidagi xatolarni ko'rsatib, ular oxirigacha faqat g'oyalar dunyosinigina tadqiq qilganlarini, ijtimoiy hayotning rivojlanish jarayonini esa xo'jalik va siyosiy hayot voqealaridan mustasno qolda va musulmon olami tarixining turli davrlarida xalq ommasi haqiqiy hayotining nazariy qoidalarga qanchalik mos kelishini hisobga olmagan holda muhokama qilganlarini ochib berdi. Bartol'dning fikricha, olimlar ijtimoiy jarayon faqat odamlarning rivojlanishi (evolyutsiyasi) gagina emas, balki mavjud moddiy va

ma'naviy madaniyat shart-sharoitlarini hisobga olgan holda xalq ommasi hayotiga ham shunchalik bog'liq bo'lishini nazarda to'tishlari lozim. Bartol'd, jumladan, «din mavjud hayot sharoitlariga qarab qullanadi, lekin aksincha emas», deb ta'kidlaydi.

Bartol'dning bunday fikrlari uning stixiyali materialistik qarashlariga, Sharq xalqlari ijtimoiy rivojlanishi jarayonining ayrim muhim problemalari bo'yicha bayon qilgan to'g'ri mulohazalari shaniga shubhasiz sharaf keltiradi.

Shuningdek, Bartol'dning musulmon mamlakatlari aristokratlar hokimiyatining o'z qiyofasiga «diniy joziba» berishga intilishi sabablarini tushuntirishda realistik yondashishi ham diqqatga sazovordir. Uning fikricha, sultonga itoat etish har bir musulmonning diniy burchlaridan biri ekanini isbot qilib ko'rsatish kerak edi va shundan keyin tez orada «yer yuzida xudo irodasiga xush keladigan tartibotni ushlab to'rish uchun mustahkam hokimiyat zarurligini isbotlovchi nazariyachilar» paydo bo'la boshladi.

Ayni vaqtda bu diniy doira «xalqning ezuvchilarga qarshi qo'zg'olonlariga tusqinlik qiladi». Ular xalqdan din yo'lida so'zsiz itoatguylilik talab qilishadi. Bu xususan hamma xukmdorlarni zolimlar deb la'natlagan «mustaqil» din aqidachilari ham ortda qolmadilar. Ular ham qo'zg'olonlarni mutlaqo yoqlamas edilar, chunki keng xalq ommasining qahr-g'azabidan, chinakam adolatli ijtimoiy tuzumga bo'lgan intilishlaridan qo'rqqar edilar.

Bartol'dning ta'kidlashicha, aristokratlar hokimiyatining muvaffaqiyati har doim din peshvolarini ag'darib tashlangan mustabidlar izidan borishga majbur etib keldi, zero mustabidlar hokimiyatiga qaraganda ancha takomillashgan idora usuliga o'tish jamiyatda o'zini anglash va (musulmon nazariyachilari aqidasi ga zid ularoq) chinakam hayot oqimida xalq va davlat hayotini belgilab beradigan qonunlarni bilish rivojlangan taqdirdagina amalga oshishi mumkin bo'ladi.

Lekin bu bilan, islom tarixi Bartol'd asarlarida tamoman to'g'ri talqin qilingan, deb bo'lmaydi. Chunki tadqiqotchi masalaga izchil dialektik materialistik nuqtai nazardan to'g'ri yondashgan taqdirdagina bu muammoni to'g'ri hal qilishi

mumkin. Biroq burjua sharqshunosligi maktabiga mansub bo'lgan Bartol'dda bu sifat yo'q edi. Shuning uchun Bartol'd asarlarida tarixiy jarayonning mohiyati to'g'risidagi («taraqdiyotning bosh omili, — deb yozadi Bartol'd, — xalqlar o'rtasidagi aloqadir») idealistik tasavvurlari bilan bu jarayonning ba'zi jihatlari to'g'risida ilgari so'rgan stixiyali materialistik fikrlarining bir-biriga qo'shilib ketishidan boshqa narsani ko'rmaymiz.

1912 yilda Bartol'd hayotida uni ilg'or fikr egas bo'lgan olim sifatidagina emas, shu bilan birga o'z qarashlarini sabot va jasurlik bilan himoya qiluvchi inson sifatida ham yaqqol xarakterlab bergan bir hodisa ruy berdi. Shu yili Peterburgda imperator sharqshunoslik jamiyati «Islom dunyosi» nomli jurnalni nashr qilishga kirishadi. Jurnal muharriri va jurnal programmasining avtori V. V. Bartol'd edi. Uning tasfiri ostida 1912 yilda mazkur jurnalning turtta soni (I tom) bosilib chiqadi. V. V. Bartol'd muljallagan programmaga ko'ra, «Islom dunyosi» jurnali Rossiyada ilmiy islomshunoslikning muhim bosma organi bo'lishi kerak edi.

Jurnalning xuddi ana shu sof ilmiylik xarakterga imperator rafiqasi Aleksandra Fedorovna homiyligidagi Imperator sharqshunoslik jamiyati rahbarligiga yoqmadi. Ularning xohishiga ko'ra, jamiyat faoliyatining asosini ilm-fan emas, rus imperialistik burjuaziyasi manfaatlarini yo'lida, rus mollarini sotishni ta'minlash maqsadida Sharq mamlakatlarini amaliy o'rganish tadbirlari tashkil qilishi kerak edi.

Bartol'd masalaning bunday quyilishiga rozi bo'lmaydi, shuning uchun ham nashrning ikkinchi yilidan boshlab u muharrirlikdan ozod qilinadi. Lekin Bartol'dni muharrirlik lavozimidan chetlashtirishdan oldin uni yuqori martabali chor amaldorlarining xohishiga mos programma asosida jurnalni chiqarishga kundirish uchun o'rinib ko'rishadi. Biroq bu o'rinishlar puchga chiqadi. Bartol'd o'zining haqligini namoyish qilgan holda, o'z e'tiqodlariga batamom sodiq bo'lgan, so'zini to'ppa- to'g'ri, kesib aytadigan prinsipial olim ekanligini ko'rsatdi.

I. Ya. Marrning guvohlik berishicha, podsho hukumatining ichki ishlar ministri Makarov Bartol'dni «Islom dunyosi» jurnalining muharriri sifatida o'z

huzuriga chaqirib, unga nasihat qilishga o'rinib ko'radi. Shunda Bartol'd ministrning so'zini keskin rad qilib, «Islom dunyosi» ommabop jurnal bo'lsada, u ilmiy nashr ekanligini pisanda qiladi va ministr unga—olimga emas, o'z qaramog'idagi mahkamalarigagina buyruq qilishi mumkinligini aytadi. Shunda ministr Makarov shunday deydi: «Agar bizga fan doktori kerak bo'lib qolgudek bo'lsa, sizga emas, G'arbga murojaat qilgan bulur edik». Biroq ministr Bartol'd singari sharqshunos tarixchining G'arbda yuqligidan bexabar edi.

Bartol'd «Islom dunyosi» jurnali taqdiri haqida so'z yuritib, 1913 yil 3 martda yozgan maktubida: «Uning yangi muharrirga (Pozdneevga) o'tkazilgani qo'pol va nodon kuchlarning aralashuvi oqibati bo'ldi. Hozirgi vaqtda qupollik va jaholatning biron bir YEvropa mamlakatida tantana qilishi amri mahol bo'lsa kerak... Turkiya ministri o'z xalqidan chiqqan olimga, Makarov menga pisanda qilganidek, ona tilidagi ilmiy adabiyotning butunlay keragi yo'q, ilm-fan bilan chet el nashrlari orqali tanishish mumkin, degan so'zni ayta oladi deb uylamayman», — deydi. 1913 yil 23 martda yozgan maktubida esa bunga qo'shimcha qilib shunday deydi: «Mening «muloyimligim» to'g'risida bildirgan fikringiz haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi; taassufki, muloyimlik uchun hozir bois yo'q; fanga qarshi shu xilda dattiq kurash olib borgan va olimlar o'rtasida o'ziga qarshi shu qadar yakdil qahr-g'azab qo'zgatgan bizning hukumatimiz singari hukumat kamdan-kam topilsa kerak».

Ko'rinib to'ribdiki, Bartol'd o'sha vaqtlarda mamlakat xukmron doiralarining fan va madaniyat sohasidagi byorokratik siyosatiga nisbatan oppozition qarashlar pozisiyasida turdi. Lekin bu pozisiya revolyutsion xarak- terda emas edi, albatta.

V. V. Bartol'd o'sha yillarda muhim asarlar va tadqiqotlar yaratdiki, natijada u vatan va jahon sharqshunosligining ko'zga ko'ringan istoriografi degan sharafiga ega bo'ldi. Dastlab Bartol'd o'zi ta'lim olgan Peterburg universiteti Sharq tillari fakultetining solnomasini yozishdan boshladi. Uning «Fakultet faoliyatining obzori» (1909 y.) degan asari mazkur fakultetning tashkil topgan vaqti— 1855 yildan to 1905 yilgacha o'tgan yarim asrlik tarixining hozirgacha mukammal obzori va umuman, rus

sharqshunosligi istoriografiyasi bo'yicha ma'lum darajada muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Bartol'd bu kitobida fakultetning qachon va qanday maqsadlarda tashkil etilgani, uning rivojlanish etapi, fakultetda ilmiy va o'qituvchilik ishlari kim tomonidan va qanday olib borilgani, fakultet erishgan muvaffaqiyatlar va uning ishidagi kamchiliklar to'g'risida batafsil hikoya qiladi.

1911 yilda Bartoldning «Yevropa va Rossiyada Sharqni o'rganish tarixi» nomli yana bir yirik istoriografiya asari bosilib chiqdi. Kitob uning Sharq tillari fakultetida shu nomdagi kurs bo'yicha o'qigan leksiylari mazmuni asosida yozilgan edi. Bartol'dning bu asari Sharq mamlakatlari va xalqlarini o'rganish tarixi bilan qiziquvchi barcha kishilarning zaruriy qo'llanmasiga aylandi. Kitobdagi yigirma bobning har birida lekin mufassal bibliografiya (muhiim asarlar to'g'risida ma'lumotnoma) berilgan bo'lib, u kitobning qimmatini yana ham oshiradi. Asarning ikkinchi qismi Rossiya bilan Osiyo O'rtasidagi munosabatlar tarixiga va rus olimlarining Sharq to'g'risida yozgan kitoblarining obzoriga bag'ishlangan.

Bartol'dning regenziyachisi N.I.Veselovskiy bu kitob to'g'risida shunday yozgan edi: «U tadqiqot usullari, temasining kengligi, qamrab olingan muddatning kattaligi jihatidan ensiklopediyaga baravar keladigan asar bo'lib chiqdi; lekin bu faqat bir kishi tomonidan vujudga keltirilgan ensiklopediyadir. Bu yangi asarni yozishga qo'l urish va uni bostirib chiqarish uchun o'z sozhasining o'lkan bilimdoni bo'lishdan tashqari, yana zur dadillik va o'z manfaatlarini o'ylamaslik ham talab etiladi... YYYevropa va Rossiyada Sharqni o'rganishning juda izchil tarixiy bayoni maydonga keldi».

N.I.Veselovskiy bergan bayonotiga asosan Bartol'dga 1913 yilda rus arxeologik jamiyatining katta oltin medali topshiriladi. Keyinchalik S.F. Oldenburg «Yevropa va Rossiyada Sharqni o'rganish tarixi» asari to'g'risida fikr yoritib, «bu sohada shu choqqacha na rus tilida va na bironta chet tilda bu asarga teng keladigan kitob chiqqani yo'q» deb ta'kidlaydi.

1910 yil 4 dekabrda Bartol'd Fanlar akademiyasining Sharq xalqlari og'zaki va yozma ijodiyoti darajasi bo'yicha muxbir a'zosi, 1913 yil 12 oktyabrda esa Osiyo xalqlari adabiyoti va tarixi bo'yicha akademik bo'lib saylandi.

Akademiklardan K. G.Zaleman, S. F. Oldenburg, V.V.Radlov va N. Y.A.Marrning Bartol'dni akademiklikka saylash to'g'risidagi tavsiyanomalarida uning ilmiy faoliyati umumiy tarixning ajralmas qismi hisoblangan va G'arb tarixida foydalanayotgan usullarni aynan qo'llash asosida Sharq tarixini o'rganish tarixida to'g'ri nuqtai nazarni qaror toptirishni maqsad qilib qo'yganligi alohida ta'kidlab o'tildi. Mazkur tavsiyanomada yana shunday deyiladi: «V.V.Bartol'd Sharqshunoslar orasida ham, umumiy tarixchilar orasida ham, Sharq tarixini huddi diniy ta'limotlar va harakatlar tarixi deb bilgan va chuqur ildiz otib ketgan qarashlar ancha kengroq qarashlar bilan almashinuvi kerakligini doimo ta'kidlab keladi. Bu fikr, Bartol'dning butun ilmiy faoliyati bo'ylab qizilip bo'lib o'tadi va uning o'zi bu sohada, shubhasiz, juda ko'p ishlar qildi hamda boshqa mutaxassislariga ham samarali ta'sir ko'rsatdi».

Darhaqiqat, o'z asarlari bilan revolyutsiyadan oldingi Rossiyada Sharqshunoslik ilmining XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi jahon Sharqshunosligida faxrli o'rin egallashini ta'minlagan Sharqshunoslar orasida Bartol'd, shubhasiz, oldingi o'rinlardan birida turardi.

Lekin, shu bilan birga Bartol'd xizmatlarining rasman tan olinishi va uning ilmiy muassasalar tomonidan govori baholanishiga qaramay, atoqli olim podsho me'morlari nazarida siyosiy jihatdan e'tiborga ega emas edi. Masalan, 1909 yil 28 fevralda Peterburg gubernyasining jandarma boshqarmasi boshlig'ining talabiga binoan, Bartol'dning uyida (ehtimol, ukasi — studentlar harakati qatnashchisi Boris Vladimirovichning ishi tufaylidir) tintuv o'tkazilib, bir qancha shaxsiy yozishmalar olib ketiladi.

Birinchi jahon urushi boshlanganda Bartol'd urushning tezroq tamom bo'lishini sabrsizlik bilan ko'tadi, kambag'allarning va jangchilarning bolalariga qo'lidan kelgancha g'amxo'rlik qiladi, nochorlar va bolalar bog'chalariga vosiylilik

qilish harakatida aktiv qatnashadi. «Har holda hayotda abadiy yodnoma bo'lib qoladigan yaxshiliklar ko'p, ayni vaqtda o'zaro qirg'inlar va boshqa yomonliklar esa vaqti kelib, o'tib ketadi. Kishilik madaniyati hali o'zining oxirgi so'zini aytganicha yo'q, buni og'ir; aytadimi, sariq irqmi yoki qora irq aytadimi, mohiyat jihatidan aslo farqi yo'q»,— deb yozgan edi. Bartol'd 1915 yil 6 dekabrda maktubida. Jahon urushi avji qizib turgan bir vaqtda bunday fikrni har qanday burjua olimi ham ayta olmasdi.

Bartol'dning bu aytganlariga «to'rli irq va millatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi... ko'tarinki fikrlar, garchi o'sha vaqtdagi tarixiy sharoitlar sababli cheklangan bo'lsa-da, chuqur mantiqiy xarakterga ega edi»,— degan havdoniy so'zlar to'la muvofiq keladi.

Bartol'd urush mamlakat xukmron doiralarini ko'p narsalarga o'rgatib quyajagi, uning tamom bo'lishi rus davlati, Rossiya xalqlari hayotiga o'zgartishlar kiritishi vaqtda ham umid qiladi. 1914 yilda V.V.Bartol'dning akademiya yillik yirilishida «Rus sharqshunosligining Turkistondagi vazifalari» temasida qilgan dokladining teksti bosilib chiqdi. «hozirgi vaqtda bashariyat tinch madaniy hayotdan qanchalik o'zoqlashgan bo'lmasin,—deyilgandi o'sha dokladda, — baribir, har bir mamlakat oldidagi ilgarigi madaniy vazifalar qolaveradi. U vazifalar vaqtincha kechiktirib qo'yilgan bo'lishi mumkin-u, lekin qisqa muddatga bo'lsa ham unutilishi mumkin emas...”

Shunga muvofiq Bartol'd Rossiya sostaviga kiruvchi turli xalqlarni, ayniqsa Zakavkaze va Turkiston xalqlarini, ularning qadimiy madaniyatini o'rganishning muhimligini ta'kidlaydi.

1915 yilda «Russkaya misl'» («Rus fikri») jurnalida Bartol'dning «Sharq va rus fani» degan maqolasi bosilib chiqadi. Olim o'z maqolasida «urush tamom bo'lgach, mamlakat uchun dam olishga emas, og'ir mehnat qilishga to'g'ri keladi» va «Yevropa mamlakatlari orasida Osiyodagi yerlar bilan Yevropa qismi bir butunlikni tashkil qiluvchi yagona davlat sifatida Rossiya oldida Ulug' okeandan tortib to Boltiq

dengizigacha cho'zilgan butun chegaralari bo'ylab bir qancha yangi vazifalar paydo bo'ladi», — deb ishonch bildiradi.

Bartol'd bu vazifalarning qanday bajarilishi to'g'risidagi masala «hayotdan o'zoqda turgan har qanday olimni ham qizirtirmay qolmas»ligini ta'kidlaydi.

Maqolada yana Rossiya bilan Sharq o'rtasida qadimdan aloqa bo'lib kelgani ta'kidlanib, Rossiyada Sharq haqida bilimlarning to'planish jarayoni to'g'risida, sharqshunoslikning taqdiri va boqsha masalalar ustida gap yuritiladi. Ammo Rossiyaning urushdan keyingi yangi vazifalari to'g'risidagi mulohazalari ancha tor edi. Aftidan, Bartol'dning o'zi bu to'g'rida ravshan tasavvurga ega emasdi. Lo'nda qilib aytganda, Bartol'd maqolasida- hamma gap mamlakat hukmron doiralariining fanga nisbatan ilgari e'tiborsiz munosabatlariga bardam berishdan, sharqshunoslar faoliyati uchun normal sharoit yaratishdan, musulmonlarni ruslar bilan yaqinlashtirish maqsadida «Rossiya musulmonlari orasida Yevropa madaniyatini yoyishdan, fanning kuchi va ahamiyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashdan iborat qilib ko'r satiladi.

Binobarin, Bartol'd liberal burjuaziya xarakteridagi sub`ektiv niyatlaridan nari o'tolmaydi.

1916 yilda V. V. Bartol'd O'rta Osiyoga oxirgi marta safar qiladi. Uning bu safardan ko'zlagan asosiy maqsadi ayrim mahalliy Sharq qo'lyozma asarlar bilan tanishish edi.

Toshkentda Bartol'd Sharqshunos A. A. Semenov va O'zbekboyi — Boqijonboy to'plagan qo'lyozma asarlar bilan tanishadi. Xususan, Boqijonboy qo'lida qashqar tarixiga oid XVII asrda Shomahmud Cho'ras ismli mirza tomonidan kuchirilgan eng nodir kitob bor edi. Bartol'd bu kitobni egasidan so'rab olib, Petrogradga olib ketadi va uning fotonusxasini Petrograddagi Osiyo muzeyiga topshiradi. Qo'qonda esa u o'zining sobiq talabasi Sharqshunos M. F. Gavrilov to'plagan qo'lyozmalar bilan tanishadi. Bu qo'lyozmalar orasida Xudoyorxon hukmronligi tarixi (1845—1858) to'g'risida, «Xudoyorxon g'alabalari haqida kitob» hamda Amin Ahmad Roziyning «Etti sho'tam» va Muhammad bin Amirxon shoh

(taxallusi Mirzond)ning «Ozodlik bog'i» kabi asarlarining eng yaxshi ko'chirmalari, ayniqsa, Bartol'd diqqatini o'ziga jalb etadi.

Bartol'd Buxoroda bo'lganida bir qancha qo'lyozma va tosh bosma asarlar to'playdi. Bu asarlar va umuman, Bartol'd Turkiston safari vaqtida qo'lga kiritgan boshqa asarlar markaziy kitob xazinalariga va avvalo, Petrograddagi Osiyo muzeyiga topshiriladi.

Xulosa

Bartol'dning g'ayrat bilan qilgan ko'magi natijasida Pomir ekspeditsiyasi tashkil qilinadi. Shuningdek, sobiq ittifoq aholisining etnik tarkibini o'rganuvchi akademik komissiya prezidiumining a'zosi va shu komissiyaning Turkiston bo'limi raxbari ham edi. Bo'lim faqat sovet Turkistonigina emas, balki qo'shni Eron va Afg'oniston demografiyasini (xalqlarning soni, tarkibi va ko'payish, kamayishini) o'rganish bilan sho'g'ullanardi.

V. V. Bartol'd, jumladan, yana katta O'rta Osiyo ekspeditsiyasiga rahbarlik qiladi. Ekspeditsiyaning samarali faoliyati tufayli 1926 yilda sobiq ittifoq Fanlar akademisining antropologiya va etnografiya muzeyiga O'rta Osiyo aholisining hayoti va urf-odatlarini o'zida aks ettirgan 200 dan ziyod etnografik eksponat to'plandi. Bartol'dning tashabbusi bilan turkman qabilalari tekshirilib, Turkmanistondagi mayda xalqlar (jamshidiylar, xazarlar, barbarlar, bulujlar) o'rganib chiqildi.

1926 yilda Bartol'd turkologlarning Boku shahrida chaqirilgan Butunittifoq I sezdida qatnashib, «Turkiy xalqlar tarixini o'rganishning hozirgi ahvoli va bu sohadagi dolzarb vazifalar» degan temada doklad qildi. Akademik S. F. Oldenburgning guvohlik berishicha, Bartol'd bu dokladida turkiy xalqlar tarixiga oid hozirgi jami bilimlarning to'la manzarasini qisqa tarzda juda mohirona bayon qilib berdi.

Basharti Bartol'd faqat o'z shaxsiy manfaatini va o'z yaqinlarining xotirjamligini ko'zlab, o'zining akademiklik vazifasidan tashqarida sodir bulayotgan narsalarga befarq qaraganida edi, yuqorida keltirib o'tilgan ishlar qilinmagan bo'lardi.

Bartol'd turkiy qabilalar va xalqlarning o'tmishi va xozirgi ahvolini o'rganish ishlarini kuchaytirish va birlashtirish maqsadida SSSR Fanlar akademiyasi sistemasida tashkil etilgan turkologiya kabinetiga 1928 yil 1 oktyabrdan boshlab direktor qilib tayinlanadi. Olim bu kabinet ixtiyoriga o'zining shaxsiy kutubxonasidan 500 ga yaqin kitobni sovg'a qiladi. Mazkur iliy muassasa 1930 yilgacha, ya'ni to sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining sharqshunoslik instituta tarkibiga qo'shilguniga qadar mavjud bo'lgan.

1930 yilda sovet sharqshunosligida muhim bir tashkiliy tadbir amalga oshirildi. Chunonchi, Osiyo muzeyi, Budda madaniyati instituta, Turkologiya kabineta va sharqshunoslar kollegiyasi bitta yagona yirik ilmiy tadqiqot muassasasi bo'lmish sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutiga birlashtirildi. Bu yangi institut tarkibiga V. V. Bartol'd va unga zamondosh barcha yirik sharqshunoslar kiritildi.

Bundan tashqari, Bartol'd muzey hamda tarixiy san'at va tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish ishlari bo'yicha O'rta Osiyo davlat muassasalari (Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris) bilan juda yaqin aloqada edi. Bu muassasalar Bartol'dni o'zlarining eng bilimdon ustози va maslahatchisi deb bilishardi. O'rta Osiyoda birinchi universitetning ochilishi uchun olib borilgan tayyorgarlik ishlarida, sovet Sharqi xalqlari yozuvida yangi turkcha alifbeni yaratishda Bartol'd aktiv ishtirok etadi.

Bartol'd inqilobdan keyin 1920 yilning yozida birinchi bor O'rta Osiyoga keladi. Bu yerga u moddiy madaniyat tarixi akademiyasi va RSFSR maorif xalq komissarligi tomonidan joylarda qadimgi yodgorliklarning ahvoli bilan tanishish, ularni bundan keyin tadqiq qilish planlarini tuzib chiqish hamda Toshkentdagi yangi ochilgan Turkiston Davlat universitetida Sharq tarixi kafedrasini tashkil etish va unda shu sohadan bir qancha leksiyalar o'qish uchun safarbar qilingan edi. Bu vazifalarning hammasini Bartol'd o'ziga xos ishchanlik, qalollik bilan va ishning moxiyatiga chuqur kirib borgan xolda astoydil bajardi.

1920 yilda Bartol'd Turkiston Davlat universitetining tarix-filologiya fakultetida Turkiston tarixidan bir qancha leksiyalar o'qidi. Bu leksiyalar konspekti 1922 yilda Toshkentda alohida nashr qilindi. Shuni aytish kerakki, bu konspekt, o'z mazmuniga ko'ra, faqat o'quv qo'llanmasigina emas, aslida, Turkiston xalqlari o'tmishining qadimiy zamonlardan boshlab, to XIX asrgacha bo'lgan tarixining ilmiy obzorini ishlab chiqish yo'lidagi dastlabki jiddiy qadam edi.

1920 yil 14 noyabrda Bartol'd Turkistonni tarixiy- madaniy o'rganishning birinchi galdagi vazifalari, degan temada doklad qildi. Shuningdek, u 1920 yil sentyabr oyida boshlangan Buxoro ekspeditsiyasida qatnashdi. Ekspeditsiya vaqtida Bartol'd qadimgi mahalliy yodgorliklarni va san`at obidalarini ko'zdan kechirdi va ularni muxofaza qilish choralarini belgiladi(bu ekspeditsiyada Bartol'ddan tashqari E. K. Betger, V. L. Vyatkin, P. E. Kuznezov, D. I. Nechkin va A. E.Shmidtlar ham qatnashgan edi). Ekspeditsiya natijasida 330 ta Sharq qo'lyozma yodgorliklari ko'zdan kechirildi va bir joyga to'plandi.

1925 yilning yozida V. V. Bartol'd V. L. Vyatkin bilan birgalikda qadimgi mahalliy yodgorliklarning ahvolini aniqlash va restavratsiya qilish ishlarining borishi bilan tanishish maqsadida Buxoro, Samarqand va Shahrisabz arxeologik ekspeditsiyasida qatnashdi.

Bundan tashqari, u Fanlar akademiyasining topshirig'iga muvofiq, mahalliy Sharq qo'lyozmalarini to'plash ishlariga va ularning ayrimlarini tavsiflashga ko'proq e'tibor berdi.

Bartol'd 1927 yilda O'rta Osiyoda bo'lganida Toshkent shaxrida Turkistonning mug'ullar bosqini davridan keyingi tarixi va O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar tarixi bo'yicha leksiyalar o'qidi, «O'rta Osiyoda eron tillari to'g'risidagi masalaga doir» degan temada doklad qildi. Sredazkomstaris va boshqa bir qancha ilmiy o'lkashunos jamiyatlari va muzeylarining ish planlarini muhokama qilishda qatnashadi, Toshkent va Buxorodan tashqari Xivada ham bo'ladi.

Bartol'd O'rta Osiyoga so'nggi bor 1928 yilda keladi. Bu safar u mahalliy ilmiy o'lkashunoslik muassasalari va tashkilotlarini qayta tuzish, ularning ish planlarini muhokama qilish va qadimgi yodgorliklarni o'rganish hamda ularni tiklash ishlariga doir masalalarni xal etishda aktiv qatnashdi.

Bartol'd sobiq ittifoq sharqshunosligining munosib vakili sifatida xorijiy mamlakatlarda bo'lgan ilmiy anjumanlarda bir necha bor qatnashdi. Masalan, 1922 yilda u Angliyada London universitetining iltimosiga binoan O'rta Osiyodagi

kuchmanchi-turkiy xalqlar va mug'ullar tarixi to'g'risida olti marta leksiya o'qidi. 1923 yil 27 martda Antropologiya institutida ana shu leksiyalarning qisqa (umumlashgan) bayonini so'zlab berdi. Shu yili aprel oyida SSSR Fanlar akademiyasining delegata sifatida tarix fanlari arboblarning Bryussel shahrida chaqirilgan xalqaro sezdida qatnashdi. Sezdning Sharq tarixi seksiyasida o'zining 1922 yilda Sankt-Peteburgda bosilib chiqqan asari (dastlabki musulmon machitlari) yuzasidan doklad qildi. Finlyandiyada (1923) Bartol'd Finugor jamiyati majlisida rus olimlarining Turkiston tarixi to'g'risidagi asarlari obzorini bayon qildi. 1926 yilda esa Turkiyada bo'lib, Istambul shahrida O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar tarixidan leksiya o'qidi. Bu leksiyalar turk va nemis tillarida ham bosilib chiqdi.

Bartol'd xorijiy mamlakatlarga qilgan ilmiy safarlarining asosiy konkret vazifalaridan tashqari, joylardagi kutubxonalarda saqlanayotgan Sharq qo'lyozmalari bilan tanishish va ularni o'rganish hamda sharqshunos olimlar bilan ilmiy aloqa o'rnatishga katta ahamiyat berdi.

1918 yilda Bartol'dning Ulugbek to'g'risidagi monografiyasi bosilib chiqadi. Bu kitob, aslida, revolyutsiyadan ilgari yozilgan bo'lib, ma'lum darajada, «Mug'ullar bosqini davrida Turkiston» asarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Avtor bu asarida ham o'z an'anasiga amal qilib, kitob mavzuiga oid bo'lmagan materiallarni ham qamrab olgan. Chunonchi, dastlabki ikki bob Chig'atoy davlatiga hamda Temur saltanatiga, oxirgi qismi esa Ulugbekning vafotidan keyingi davr voxealariga bag'ishlangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Bartol'd bizga qoldirib ketgan ana shu monografiyada bayon etilgan ma'lumotlardan tashxari Ulugbekning to'liqroq tarjimai xoli ilmiy adabiyotda xozirgacha vujudga kelgani yo'q. Bartol'd Ulugbekning fandagi xizmatlarini aslo kamsitmagan holda olim-Ulugbek faoliyatini podsho Ulugbek faoliyatidan aniq ajratib ko'rsatdiki, bu xol olimning katta xizmatidir. U Ulugbekni davlat arbobi sifatida ham tavsiflaydi.

Bartol'd O'rta Osiyoning ulug' shoiri va o'rta asr mutafakkiri Alisher Navoiyga bag'ishlab monografiya ham yaratdi. Bu asar, o'z navbatida, Ulugbek haqidagi tadqiqotning davomi bo'lib, sovet navoiyshunosligida muhim manba hisoblanadi. Bartol'dning jahon adabiyotida yuqsak baholagan va keng tanilgan bu asari ustida mufassal gapirib o'tishning hojati bo'lmasa kerak. Dastlabki asl manbalar asosida yaratilgan bu asarda o'z zamonasining yirik siyosiy arbobi bulmish Navoiyning ilmiy biografiyasi juda aniq va turli xil ifoda etilgan. Bu asar yana shuning uchun ham qimmatliki, Navoiy biografiyasi Sulton Xusayn davlati hayotining keng fonida bayon qilingan.

V. V. Bartol'dning Navoiy haqidagi asari bosilib chiqqishdan buyon o'tgan yil mobaynida, albatta, undagi ko'p narsalar eskirdi yoki fanga keyinchalik ma'lum bo'lgan yangi faktlar asosida to'ldirildi. Lekin, shunga qaramay, akademik E. E. Bertels so'zlari bilan aytganda, V. V. Bartol'd kitobining ayrim joylariga ma'lum o'zgartishlar kiritilgan bo'lsa ham, unda umuman olganda, Navoiyni o'rganish tarixida birinchi bor uning biografiyasiga bog'liq bo'lgan va faqat dastlabki manbalardangina olingan faktlarning ancha to'liq majmuasi aks ettirilgan. Shuning uchun Bartol'dning bu asari Navoiy hayotini va u yashagan zamonni o'rganishda yana ko'p yillar muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Bartol'd O'rta Osiyo tarixiga doir yana bir qator ilmiy maqolalar ham yozdi. «Sug'd va toxar tillari masalasiga doir», «Buxoro va uning atrofidagi qadamjolar», «Turk va mug'ullarning dafn marosimlari masalasiga doir» (1921), «Samarqand yodgorliklari to'g'risida yangi ma'lumotlar» (1921), «Kubas minorasi tarixiga ma'lum bo'lgan musulmon-fors me'morchiligining birinchi yodgorligidir» (1922), «O'rta Osiyoda ruslar kelguniga qadar bo'lgan davrdagi paxtachilik», «1924 yil yozida Samarqandda olib borilgan arxeologik ishlar to'g'risida» (1925) kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Bartol'd umrining oxirgi yillarida sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining topshiririga binoan, o'zi nashrga tayyorlagan va keyinchalik jahon fanida keng

shuhrat qozongan eski qo'lyozma asar — noma'lum avtor tomonidan yozilgan «Xudad al-alam» («Dunyo chegarasi») nomli forsha geografik risolaning.. fototipik nashri (fotorasmi tushirilgan oyna plastinkadan kuchirib bosilgan) bosilib chiqdi. Bu risola arab klassik geograflari maktabining qarashlarini aks ettirgan bo'lib, «Tumanskiy qo'lyozmasi» nomi bilan (qo'lyozmani topgan kishi A. G. Tumanskiy edi) Sharqshunoslik tarixiga kirgan.

Bartol'd ana shu risola to'g'risida ham maqola yozadi. U mazkur qo'lyozmaning qadimgi yunon olimlari Arastu va Ptolemeylar hamda arab yozuvchi-geograflari Balxiy va Istaxriylar ta'sirida yozilganini isbot qilib berdi. Qo'lyozma avtori asosiy manbalar qatorida Abu Abdulloh Jayxuniyning asaridan foydalangan bo'lishi ehtimol. Bartol'dning fikricha, «Dunyo chegarasi»ning noma'lum avtori O'rta Osiyo geografiyasi, xususan, uning Sharqiy qismi bo'yicha arab geograflariga qaraganda, ancha asosliroq bilimga ega bo'lgan.

Bartol'd umrining oxirgi yillarida (1920—1930) O'rta Osiyo tarixidan yozgan «Temuriylar tarixi bo'yicha yangi manba», «Xorazm tarixi bo'yicha yangi maktab», «O'rta Osiyoda ot va aravada yo'rish to'g'risida» maqolalari vafotidan keyin bosilib chiqdi.

1925 yilda sovet jamoatchiligi V. V. Bartol'dning «Mug'ullar bosqini davrida Turkiston» mavzuida yoqlagan dissertatsiyasining 25 yilligini nishonladi. Shu tarixiy sana munosabati bilan Toshkentda A. E. Shmidt va E. K. Betgerlarning taxriri ostida maxalliy avtorlarning katta hajmli maqolalar to'plami bosilib chiqadi. To'plamga sharqshunoslarning keksa avlodiga mansub bo'lgan olimlar qatorida yosh sharxshunoslar maqolalari ham kiritilgan. Bu xususda keyinchalik Bartol'dning o'zi bunday deydi: «To'plam Turkistonshunoslik veteranlari bilan juda yosh olimlarni, yoshi hamda ilmiy faoliyatlarining boshlanish vaqti jihatidan ham nevaram tengi, shogirdlarimning shogirdlari xisoblangan kishilarni birlashtirdi».

To'plamga yozilgan so'z boshida V. V. Bartol'd asarlari O'rta Osiyo o'tmishini tadqiq qilish ishida butun bir davrni tashkil etganligi va

Turkistonshunoslikning moddiy yoki ma'naviy madaniyat sohasidagi muayyan masalani ilmiy ishlab chiqishga kirishmoqchi bo'lgan har qanday tadqiqotchi u asarlarga murojaat qilishi muxarrar ekanligi haqqoniy ravishda ta'kidlab o'tilgan.

1928 yil may oyida V. V. Bartol'dning sevimli rafiqasi, sodiq va g'amxo'r yordamchisi va do'sti Mariya Alekseevna vafot etadi. Bu og'ir judolik olimga qattiq ta'sir qiladi. Bu haqda N. YA. Marr: «Bartol'd fanga butun vujudi bilan berilganidek, kundalik turmush va oilaviy hayotga hgam xuddi shunday berilgan edi», — deydi. Bu judolik va ro'zg'or tashvishlari Vasiliy Vladimirovichning salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.

V. V. Bartol'd zurayib ketgan buyrak kasalligi azoblarini mardonavor yengib, o'zini nechog'lik bardam tutishga o'rinmasin, bari bir, og'ir dard bora-bora o'z ishini qildi. U 1930 yil 19 avgustda o'zi davolanayotgan Erisman kasalxonasida vafot etadi.

Ajoyib olim Fanlar akademnyasi tomonidan chiqariladigan “Eron” nomli yirik maxsus jurnalning IV jildini kurib chiqayotgan vaqtida o'lim uin hayotdan olib ketdi. O'limidan ikki kun oldin jonajon Toshkentga,



Akademik Bartol'dning rafikasi Mariya Alekseevna (Jukovskaya). M. E.

Masson nomiga maktub yozib, unda mahalliy olim va fan arboblari «Runik» (qadimgi turkiy) yozuvlarining topilishi bilan tabriklaydi. Bu hodisa Bartol'd umrining oxirigacha Sharqshunoslik ishida qulga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar, ajoyib ilmiy kashfiyotlar va topilmalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotlar bilan qiziqqanligidan dalolat beradi.

V. V. Bartol'dni dafn qilish marosimida marhumning juda ko'p do'stlari va shogirdlari hozir bo'lishdi. Uning gulchambarlarga burkangan qabri ustida S. F. Oldenburg, I. Yu. Krachkovskny nutq so'zladilar. S. F. Oldenburg Bartol'dning alloma olimligi, u yozib qoldirgan asarlarning jahonshumul adamiyati haqida gapiradi. «Fan, - deydi u, Markaziy Osiyo va musulmon xalqlar tarixini bilish jihatidan tengi yo'q olimdan ajraldi ... Uning qiziqish doirasi nihoyatda keng bo'lib, uni hammadan ko'proq odamlar qiziqtiradi. V. V. Bartol'd faqat olimgina emas, balki otashin jamoat arbobidir ... Bartol'd O'rta Osiyoning yirik tadqiqotchisi edi. Bartol'd o'zining chuqur bilimi, ish usullarining puxta va asosligi bilan yagona ustoz sanalardi».

V. V. Bartol'dning o'limi muqosabati bilan juda ko'p ilmiy muassasa, tashkilot, oliy o'quv yurti va marhumning ayrim shogirdlari tomonidan ta'zianomalar e'lon qilindi. Ular orasida, tabiiyki, O'rta Osiyo respublikalari ilmiy va keng jamoatchiligi tomonidan bildirilgan ta'zianomalar ham bor edi. «O'zbek xalqi,— deyilgandi taziya telegrammalaridan birida,— madaniy rivojlanish yo'liga tushib olgan hozirgi paytda, mahalliy ilmiy xodimlar o'z o'lkalari tarixini aniqlashda marhumning yozib qoldirgan asarlaridan boy material topadilar va, shu bilan birga, o'zlarining atoqli tarixchilari xotirasini unutmaydilar».

Tazianomalarda marhumning hayoti va faoliyati to'g'risida yozilgan ocherklarda uning sobiq ittifoq va jahon fani oldidagi g'oyat o'lkan xizmatlari yakdillik bilan yuksak baholangan.

Lekin shunga qaramay, V. V. Bartol'd xozir ham, kelajakda ham, turli avlod sharxshunoslarining o'zgarmas va doimiy hamrohi bo'lib qolaveradi. Uning ilmiy

dahosi va ijodiy merosining uchmas qimmati shundadir. Bu meros sinchiklab aniqlangan ma'lumotlarcha, to'plangan faktik materiallarga, aniq va nozik ko'zatuylarga, gumon va farazlar, taxminiy mulohazalarga nixoyatda boydir. Bartol'dning manbalar ustida ishlashdagi mohirligi tarixchilar, tilshunoslar, adabiyotchilarning to'rli avlodlari uchun ham uzoq vaqt namuna bo'lib xizmat qiladi.

Bartol'd asarlari ko'p hollarda o'zidan keyingi avlod olimlarining yangi, qushimcha tadqiqotlarida dastlabki marra bo'lib qoladi, ularga ishonchli ilmiy muljal beradi. Bizning zamonimiz tadqiqotchilari Bartol'd asarlaridagi u yoki bu qoidalarga qushilmagan chog'larida ham, bu qadalar ilmiy munozaralarga sabab bo'lganida ham, Bartol'd asarlarining qimmati yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Chunki mazkur hollarda bu o'lgan ilmiy meros ilmiy tafakkurni olga siljitishga, uni uyg'otishga, unga jonli, ijodiy xarakter, tinimsiz izlanish va kashfiyotchilik xakteri baxsh etishga yordam beradi.

Bartol'd asarlari kutubxonalarning chang bosgan jovonlariga xarakatsiz, vaqti tugagan o'lik yo'q bo'lib tushmadi, balki ular Sharq xalqlarining ko'p asrlik tarixiy-madaiiy o'tmishini yanada kengroq, chuqurroq, har tomonlama bilish ishiga xamon xizmat qilmoqda va yana o'zoq yillar xizmat qilajak. Marhum Sharqshunos olim qilgan ishlarning ulug'ligi ham shunda.

Shubhasizki, V. V. Bartol'dning ilmiy asarlari bundan keyin ham uzoq yillar o'z qimmatini yuqotmay, fanga xizmat qilishda davom etajak. «Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini har taraflama tashkil qilish ham katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir», chunki «Markaziy Osiyo xalqlari jahon madaniyatini rivojlantirishga o'lgan hissa qushdilar va hozirgi jahon taraqqiyotida ham muhim rol uynamoqdalar».

1960 yilda SSSR Fanlar akademiyasi tarix fanlari bo'limining byurosi V. V. Bartol'd asarlarini nashr qilish to'g'risida qaror qabul qildi va bu vazifani amalga oshirish SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti zimmasiga yuklandi.

Bartol'd asarlari quyidagi tuqqiz jildda unta kitob bo'lib bosildi:

I jild. Mug'ullar bosqini davrida Turkiston.

II jild. 1-qism. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha umumiy ishlar. Kavkaz va Sharqiy Yevropa tarixi bo'yicha ishlar.

II jild. 2-qism. O'rta Osiyo tarixining ayrim problemalari bo'yicha ishlar.

III jild. Tarixiy geografiya bo'yicha ishlar.

IV jild. O'rta Osiyo va unga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarning arxeologiyasi, numizmatikasi, epigrafikasi va etnografiyasi bo'yicha ishlar.

V jild. Turkiy va mug'ul xalqlarining tarixi va filologiyasi bo'yicha ishlar. Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq tarixi bo'yicha ishlar.

VI jild. Islom va arab xalifaligi tarixi bo'yicha ishlar.

VII jild. Eron va Afroniston tarixi va filologiyasi bo'yicha ishlar.

VIII jild. Manbashunoslik bo'yicha ishlar.

IX jild. Sharqshunoslik tarixi bo'yicha ishlar.

Bu ro'yxatning o'ziyoq olim ilmiy qiziqishlarining kengligidan va ilmiy merosining ko'p qirraligidan darak berib to'ribdi.

Bartol'd Sharq xalqlari yaxshi kelajakka erishishlari mumkinligiga o'zicha qizg'in va astoydil ishonardi.

ADABIYOTLAR:

- Karimov I.A. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». – T.: “O'zbekiston”, 2011i.
- Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch». – T.: “Ma'naviyat”, 2008i.
- Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». – T.: “Sharq”, 1998i.

1.Karimov. I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. Toshkent. «O'zbekiston». 1997 . 259-bet.

- 2.Karimov. I.A. “O’zbekiston XXI asr boqasida xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent. «O’zbekis-ton». 1997-y . 110-bet.
- 3.“O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institute faoliyatini takomillashtirish to’g’risidagi” qarori //Xalq so’zi. 1998 i. 27 iyul.
- 4.“O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 50 yilligi”. –T., 1993i.
- 5.“Prezident I.A.Karimovning Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 йilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi”// Xalq so’zi. 2006 yil 3 noyabr.

86. Лунин Б.В. Жизнь и деятельность академика Бартольда //Средняя Азия в отечественном востоковедении. Ташкент: Фан. 1981. – 223 с.

87. Лунин Б.В. Историография общественных наук в Узбекистане, Биобиблиографические очерки. Ташкент: Фан, 1974. – 384 с.

88. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. Ташкент: Наука, 1965. – 408 с.

6.Axmedov B. “Tarixdan saboqlar” -T., 1996i.

7.Bronshtein A. “Metodika istoricheskogo issledovaniya”. Rostov, 1971g.

8.“Vostochnoye istoricheskoye istochnikovedeniye i spetsialniye distsiplini”.Vip. 1. – M., GVVL, 1989g.

9.Axmedov B. “O’zbekiston xalqlari tarixi manbalari”. - T.: O’qituvchi, 2001i.

10.Axmedjanov G.A. “Rossiyskaya imperiya v Sredney Azii. Istoriya i istoriografiya kolonialnoy politiki sarizma v Turkestane (1867-1917)”. –T.: Fan. 1995i.

11.Ahmedov B.A. “Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII vv. Pismenniye pamyatniki”. – T., 1985g.

12. Axunova M.A., Lunin B.V. «Istoriya istoricheskoy nao’qi v Uzbekis-tane». -T.: Fan, 1970g

- www.ziyonet.net

- www.history.ru
- www.arshiv.ru